

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix FAKULTETI

402 -guruhi talabasi Mahmudov Bunyod Bahramovichning
5111600 “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va xuquq ta'limi” yo`nalishi
bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: O'zbekiston Respublikasida ma'muriy javobgarlikka
tortish asoslari**

Ilmiy rahbar: t.f.n. U.A.Sheripov

Urganch 2015 yil

1-ilova. Bitiruv malakaviy ishining titul varag'i

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

Tarix
(fakultet nomi)

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
(kafedra nomi)

O'zbekiston Respublikasida ma'muriy javobgarlikka
tortish asoslari

(bitiruv malakaviy ish mavzusining nomi)

Bajaruvchi:

Mahmudov Bunyod

Rahbar :

t.f.n. U.A.Sheripov

Urganch shahri

2015-yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix

(fakultet nomi)

Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi

(kafedra nomi)

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO`YICHA

TOPSHIRIQLAR REJASI:

Talaba. Mahmudov Bunyodga Universitet rektorining «189 T 1&»-sonli 17 noyabr 2014 yil buyrug`i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun “O`zbekiston Respublikasida ma`muriy javobgarlikka tortish asoslari ” mavzusi tasdiqlangan.

2. Kafedra majlisining qaroriga binoan. U. Sheripov bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi: Bitiruv malakaviy ish-Kirish, 2 ta bob, 6 ta paragraf, Xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

**4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma`lumotlar.** O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlaridan, Oliy Majlis palatalari yig`ilishlari materiallari va qonun hujjatlaridan, mavzuga oid ilmiy maqola, risola, monografiyalardan, matbuot va internet materiallaridan olindi.

5. Bitiruv malakaviy ishga _____

_____ **ilova qilinadi.**

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

<i>№</i>	<i>Bajarilgan ishning mazmuni</i>	<i>Bajarish muddati</i>
1.	Ishning rejasini tuzish va adabiyotlar izlash.	2014 yil dekabr
2.	Materiallar izlash	2015 yil yanvar
3.	Ishning kirish qismini tayyorlash	2015 yil fevral
4.	I-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va taxlil qilish	2015 yil mart
5.	II-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va taxlil qilish	2015 yil aprel
6.	Ishning xulosasini tayyorlash	2015 yil may
7.	Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatini tuzish	2015 yil may

Bitiruv malakaviy ish rahbari: t.f.n. U.SHeripov

Bajaruvchi talaba: Mahmudov Bunyod

2014 yil «6» dekabr

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2014 yil tasdiqlandi
(«5»- sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri: t.f.n. U.SHerpov

(imzo)

**BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARINING
MULOHAZALARI**

Talaba: Mahmudov Bunyod Bahramovich

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: “O`zbekiston Respublikasida ma'muriy javobgarlikka tortish asoslari”

Bitiruv malakaviy ish xajmi: 65 sahifa

Tushuntirish hismi: 51 sahifa

Ilovalar soni: -

Mavzuning dolzarbligi: Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida sud-huquq islohotlarini uzviy davomiyligi ta'minlash bugungi kunda davlatimiz siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biri bo`lib kelayotganligini e'tirof etgan holda ma'muriy javobgarlik bilan bog`lliq mavzularni tadqiq etish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Bugungi kunda parlament tomonidan “Ma'muriy javobgarlik kodeksi”ning yangi tahrirda tayyorlash, “Ma'muriy tartib-taomil (protsedura)lar to`g`risida”gi qonunning qabul qilishga doir harakatlarni zamirida ham ma'muriy majburlov tartib-taomiliga oid huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, ma'muriy javobgarlikni liberallashtirish vazifalari yotmoqda. YUqoridagi fikrlardan kelib chiqib bugungi kunda ma'muriy javobgarlik mavzusi bilan bog`liq masalalarni ilmiy-nazariy, huquqiy va amaliy masalalariga bag`ishlangan tadqiqotlarning olib borilishi dolzarbdir va muhim ahamiyat kasb etadi.

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi: Mahmudov Bunyod barcha fanlarni to`la o`zlashtirib, ularni amaliyotga qo`llash ko`nikmasiga ega.

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari; Mahmudov Bunyod o'zi mustaqil ishlay oladi, mahsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyatiga ega. O'zining mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ishlashga layoqatli, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, o'z ustida muntazam ishlaydi. Muomalasi yaxshi, ishga mas'uliyat bilan yondashadi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Ishning materiallaridan umumta'lim maktablari, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va Oliy o'quv yurtlarida Ijtimoiy-Gumanitar fanlarni o'rganishda hamda ma'muriy huquq fani bo'yicha dars mashulotlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi.

Ish to'la talabga javob beradi. Uning materiallaridan amaliyotda keng foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

t.f.n. U.A.SHeripov

(f.i.sh.)

2015 yil «25» may

Urganch davlat universiteti

Tarix fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va xuquq ta'limi" yo'nalishining

Bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi. "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy javobgarlikka tortish asoslari".

Malakaviy ishning hajmi. 12 ming co'zdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 51 sahifadan iborat

b) ilovalar soni: _____

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi. Ishning mavzusi dolzarb, berilgan topshiriqqa mosdir

Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati. Ishning kirish qismida dolzarbligi, ilmiy o'rganilganlik darajasi, metodologik asosi va muhim manbasi, maqsad va vazifalari, amaliy ahamiyati, tarkibiy tuzilishi va hajmi o'z aksini topgan bo'lib, to'la talabga javob beradi.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi. Bitiruv malakaviy ishda ilmiy adabiyotlardan, innovatsion yutuqlar natijalaridan, prezident asarlaridan keng foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi. Ishda mavzuga oid barcha ma'lumotlar umumlashtirilgan va tahlil

qilingan. Ish ilmiy uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan to'la asoslab berilgan. Amaliy ahamiyati ham ko'rsatilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari. Ishda mavzuning ilgari kitoblarda aks ettirilmagan jihatlari ko'rsatib berilgan. Ishning materiallari va tavsiyalardan ta'lim sohasida ijtimoiy-gumanitar va huquqshunoslik fanlarni o'rganishda hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar. Ishda ayrim texnik kamchiliklar va juz'iy orfografik xatolar mavjud. Ular ishning ahamiyatini pasaytirmaydi.

Taqrizchi: Abdullayev O'ktam Ibadullayevich, Horazm viloyat Adliya
bosharmasi bo'lim boshlig'i

2015 yil « » may

Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

№	Baholanadigan bo`limlar	Eng yuqori ko`rsatkich ball hisobida
1	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35
3	“Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. CHet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo`yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma`ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e`tiborga olingan holda baholash mezonlariga o`zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishining bitiruvchisi Mahmudov Bunyodning "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy javobgarlikka tortish asoslari" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning «____»

2015 yil «____iyun» dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. CHet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	
7	Himoyaga ish mazmunini bayon hila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	
Jami:			

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy javobgarlikka tortish asoslari" mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun _____ lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilansin va «_____» deb baholansin.

2. _____
 _____ DAK raisi: _____
 _____ A'zolari: _____

2015 yil «_____» _____

Urganch davlat universiteti Tarix Fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası

Bitiruv malakaviy ish _____sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: Mahmudov Bunyod

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: “O'zbekiston Respublikasida ma'muriy javobgarlikka tortish asoslari ”

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi: t.f.n. U.SHeripov

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2015 yil « » mayda o'tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib Abdullayev O'ktam Ibadullayevich tayinlandi.

Kafedra mudiri:

t.f.n. U.SHeripov

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:

t.f.n. O.SHixov

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti
Milliy g`oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası
Milliy g`oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo`nalishi 5111600 ta'lim
bakalavr

Tasdiqlayman
fakultet dekani

“ ____ ” _____ 2015 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO`YICHA TOPSHIRIQ

Talaba : Mahmudov Bunyod

Ishning mavzusi: “O`zbekiston Respublikasida ma'muriy javobgarlikka tortish asoslari”

«17 noyabr 2014 yil universitet rektorining 189 T 1& sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: “ ____ ” _____ 2015 y.

3. Mavzu bo`yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro`yxati.

1. Nazarov K. Ma'muriy huquq. O`quv qo`llanma. —T.: SamDU, 2004. - 214 b.
2. Xakimov G. Ma'muriy huquq (maxsus qism). – T.: TDYUI, 2005. - 331 b.
3. Xvan L.B. Advokat i proizvodstvo po delam ob administrativnix pravonarusheniyax v Respublike O`zbekistan. Uchebnoe posobie. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – 160 s.
4. Xojiev E. Samig`jonov F. Ma'muriy qonunchilik tizimi. O`quv qo`llanma. – T.: TDYUI, 2005. - 219 b.
5. Xudoyberdieva V., Xojiev E. Ma'muriy huquq. O`quv qo`llanma.– T.:TDYUI,2001.-98 b.

6. Baxromov X. Ma'muriy majburlov. // J. Xayot va qonun. – 2005. – 1-son. – B. 32-37.
7. Boboev D. Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish ma'muriy ta'sir chorası sifatida. // J. Huquq. Pravo. Law. 2005. № 4. – B. 82-87.
8. Xojiev E. Ma'muriy huquqda javobgarlik // J. Qonun himoyasida. 1999. №9. – B. 15-19
9. Xojiev E. Ma'muriy javobgarlik // Ilmiy-ommabop risola. - T.: TDYUI, 2006. – 150 b.
10. Xojiev E. Davlat boshqaruvi. Ilmiy-ommabop risola. – T.: TDYUI, 2006. — 288 b.

4. Ishning maqsadi: Ishda mavjud materiallar asosida huquqiy demokratik davlatni shakllantirishda yuksak ekologik huquqiy madaniyatli shaxsni shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi.

5. CHizma materiallar ro'yxati: _____

6. Maslahatchilar: _____

Bo`limlar	Maslahatchi F.I.SH.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi

Ishga taqriz yozuvchining F.I.SH., ilmiy darajasi, unvoni:

Abdullaev O`ktam Ibadullaevich Viloyat Adliya boshqarmasi bo`lim boshlig`i

7. Ilmiy rahbar:

t.f.n. U.SHeripov

BMI bajaruvchi talaba: Mahmudov Bunyod

Kafedra mudiri: t.f.n. U.SHeripov

(F.I.SH.)

(imzo)

MUNDARIJA

KIRISH

1 BOB. Ma'muriy javobgarlik tushunchasi, mohiyati va o'ziga xos jihatlar

- 1.1. Ma'muriy javobgarlik tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari.**
- 1.2. Ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaruvchi ma'muriy huquqbuzarlikning belgilari va yuridik tarkibi.**
- 1.3. Ma'muriy javobgarlikda jazo choralari va ma'muriy javobgarlikka tortish vakolatiga ega sub'ektlar.**

II.BOB. Ma'muriy javobgarlikka tortishning tashkiliy-huquqiy asoslari.

- 2.1. Ma'muriy javobgarlikka tortishning va jazoni qo'llashning tashkiliy-huquqiy asoslari.**
- 2.2. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik asoslari**
- 2.3. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishning tashkiliy-huquqiy asoslari.**

XULOSA

FOYLANANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida sud-huquq islohotlarini uzviy davomiyligi ta'minlash bugungi kunda davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelayotganligini e'tirof etgan holda ma'muriy javobgarlik bilan bog'liq mavzularni tadqiq etish zaruriyatidan kelib chiqadi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan 2010 yil 12 noyabrdagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Kontseptsiyasi"da ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksni takomillashtirish borasidagi g'oya ham bugungi kunda ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirish, demokratlashtirish, bu sohada qonuniylikni ta'minlash va fuqarolarning huquqlarini ishonchli himoyalash bo'yicha choralarni nazarda ko'zda tutish lozimligi xususida to'xtalib o'tdi¹.

Bugungi kunda parlament tomonidan "Ma'muriy javobgarlik kodeksi"ning yangi tahrirda tayyorlash, "Ma'muriy tartib-taomil (protsedura)lar to'g'risida"gi qonunning qabul qilishga doir harakatlarni zahirida ham ma'muriy majburlov tartib-taomiliga oid huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, ma'muriy javobgarlikni liberallashtirish vazifalari yotmoqda. YUqoridagi fikrlardan kelib chiqib bugungi kunda ma'muriy javobgarlik mavzusi bilan bog'liq masalalarni ilmiy-nazariy, huquqiy va amaliy masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarning olib borilishi dolzarbdir va muhim ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi va muhim manbasi. Ishni tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning asarlaridagi mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, sud-huquq tizimini isloh etish jarayonida ma'muriy javobgarlikni liberallashtirish to'g'risidagi fikrlari va g'oyalari metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, mavzuga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yil 12 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" to'g'risidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi 2010 yil 13 noyabr

oid ilmiy maqolalar, monografiyalar, ommaviy axborot vositalari hamda internet materiallari ishning muhim manbasi hisoblanadi. Ishda barcha ma'lumotlar tahlil qilingan va umumlashtirilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Ushbu mavzuni tadqiq etish jarayonida ma'muriy javobgarlik mavzusi doimiy asosda ma'muriy huquq yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan huquqshunoslarning diqqat e'tiborida bo'lib kelayotganligini ta'kidlab o'tish lozim. O'zbek huquqshunos olimlari X.R.Alimov, A.A.Maxmudov, N.T. Ismoilov¹, I.A.Xamedov², E.Xojiev, T.Xojiev³, F.Samig'jonov⁴, K. Nazarovlarning⁵ ishlarida o'rin egallagan.

Xususan xorij olimlari YU.M. Kozlov⁶, D.N.Baxrax, B.V.Rossinskiy, YU.N. Starilov⁷, A.P.Alexin, A.A.Karmolitskiy⁸, G.V. Atamanchuk⁹, B.N.Gabrichidze, A.G.CHernyavskiy, A.N. Kim-Kimen¹⁰, YU.A. Tixomirov¹¹kabi olimlarning ishlarida ma'muriy javobgarlik masalalari o'rin egallagan.

Bitiruv malakaviy ishini tayyorlashdan ko'zlangan maqsad va vazifalar shundan iboratki, mamlakatimizda istiqloldan keyingi o'tgan yillarda sud-huquq tizimini isloh etish jarayonida ma'muriy javobgarlikka tortish tizimini

¹ Alimov X.R. Ma'muriy huquq. Darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1995.— 203 b; Alimov X.R., Soloveva L.I. i dr. Administrativnoe pravo Respubliki Uzbekistan. Uchebnik dlya yuridicheskix vuzov. - T.: Adolat, 1998. – 484 s ; Alimov X.R., Maxmudov A.A., Ismoilov N.T. Ma'muriy huquq. Darslik. 2-nashr. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2003.— 367 b. ; Xudoyberdieva V., Xojiev E. Ma'muriy huquq. O'quv qo'llanma.–T.:TDYUI, 2001.-98 b.

² Xamedov I. Administrativnoe pravo. Uchebnik.- T.: UMED, 2004. – 234 s.

³ Erkin Xojiev, To'lqin Xojiev. Ma'muriy huquq: Bakalavriatning 5380100 - YUrisprudentsiya yo'nalishi talabalari uchun darslik / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.X.Rustambaev. – T.: 2006. – 800 b; Xojiev E. Davlat xizmati. O'quv qo'llanma. – T.: TDYUI, 2004. - 127 b.; Xudoyberdieva V., Xojiev E. Ma'muriy huquq. O'quv qo'llanma.– T.:TDYUI, 2001.-98 b.; Ma'muriy huquq. O'quv qo'llanma. Toshkent: TDYUI, 2011, E.T.Xojiev; Xojiev E. Ma'muriy huquqda javobgarlik // J. Qonun himoyasida.1999. №9.– B.15-19; Xojiev E. Ma'muriy javobgarlik // Ilmiy-ommabop risola.- T.:TDYUI,2006.–150 b.

⁴ Xojiev E. Samig'jonov F. Ma'muriy qonunchilik tizimi. O'quv qo'llanma. – T.: TDYUI, 2005. - 219 b.; F.R.Samig'jonov Ma'muriy huquq. O'quv qo'llanma. Toshkent: "Al-Faba servis", 2008.; Ma'muriy huquq. O'quv qo'llanma. Toshkent: "Fan va texnologiya markazi", 2009. F.R.Samig'jonov.

⁵ Nazarov K. Ma'muriy huquq. O'quv qo'llanma. —T.: SamDU, 2004. - 214 b.

⁶ YU.M.Kozlov Administrativnoe pravo uchebnik dlya vuzov Moskva, 2003.

⁷ D.N.Baxrax, B.V.Rossinskiy, YU.N. Starilov Administrativnoe pravo: Uchebnik dlya Vuzov. – M.: Norma, 2004. 19-b.

⁸ Alexin A.P., Karmolitskiy A.A., Kozlov YU.M. Administrativnoe pravo Rossiyskoy Federatsii. Uchebnik. – M.: ZERSALO, 1998. 4-b.

⁹ Atamanchuk G.B. Teoriya gosudarstvennogo upravleniya: Kurs lektsiy. M., 1997. 29-30-b.lar

¹⁰ Gabrichidze B.N., CHernyavskiy A.G., Kim-Kimen A.N. Administrativnoe pravo: Uchebnik. – M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2004. 7-b.

¹¹ YU.A. Tixomirov Administrativnoe pravo i protsess. Polniy kurs. Vtoroe izdanie, dopolnennoe i pererabotannoe / YU.A. Tixomirov – M.: Izd. Tixomirova M.YU., 2005. – 697 s.

liberallashtirish masalalari hali ko'p o'rganilmaganligini, shuningdek ma'muriy javobgarlik mavzusi keng qamrovli bo'lganligi uning predmeti doirasida ham ma'muriy javobgarlik tushunchasi, ham ma'muriy javobgarlikning ob'ekti, sub'ekti va maqsadi o'rganilishini e'tiborga olgan holda quyidagi maqsadlarni ilgari suramiz:

- Ma'muriy javobgarlik tushunchasi, uning mazmun-mohiyatini ochib berish;
- Ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaruvchi ma'muriy huquqbuzarlikning tarkibi: sub'ekti, ob'ekti, ob'ektiv tomoni, sub'ektiv tomoniga oid ilmiy nazariy va huquqiy jihatlarni tadqiq etish;
- Ma'muriy javobgarlikda jazo choralari qo'llovchi sub'ektlar doirasi va ularning ma'muriy javobgarlikka oid choralarni qo'llashga oid vakolatlari masalalari bilan bog'liq masalalarni nazariy va huquqiy jihatlarni o'rganish;
- Ma'muriy javobgarlikda jazo: turlari, qo'llash asoslari va tartibi bilan bog'liq masalalarni tadqiq etish

bitiruv malakaviy ishi uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- O'zbekistonda mustaqillikdan keyingi yillarda ma'muriy javobgarlik tizimining isloh etilishi, ma'muriy javobgarlikka tortuvchi sub'ektlarning huquqiy maqomiga, ularning javobgarlikka tortish asoslariga oid qonunchilik asoslarining shakllanishi va rivojlanishiga masalalarini o'rganish orqali ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish;
- Ma'muriy javobgarlik tushunchasi borasidagi turli olimlarning nazariy qarashlarini umumlashtirgan holda ma'muriy javobgarlik tushunchasi va mohiyatini ochib berish;
- Ma'muriy javobgarlikni qo'llash vakolatiga ega bo'lgan sub'ektlar doirasi hamda ularning ma'muriy javobgarlikni qo'llash borasidagi vakolatlarini amalga oshirishda amaliyotda mavjud muammolarni tahlil qilish orqali amaliy taklif va mulohazalarni ishlab chiqish;
- Ma'muriy javobgarlikka tortish tartib-taomillarini chuqur tadqiq etish orqali ma'muriy javobgarlikni belgilash asoslarini takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va mulohazalar tayyorlash;

- Ma'muriy javobgarlikka tortish, ma'muriy jazoni qo'llash tartibi, ma'muriy javobgarlikdan ozod etish, ma'muriy javobgarlikni chegaralashning tashkiliy-huquqiy asoslarini tadqiq etish ushbu yo'nalishlarda amaliy takliflarni ishlab chiqish;

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Ishning materiallaridan umumta'lim maktablari, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va Oliy o'quv yurtlarida Ijtimoiy-Gumanitar fanlarni o'rganishda hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanish mumkin. Mazkur materiallardan ma'muriy huquq fanlarini o'qituvchilari uchun yordamchi material sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va xajmi.

Bitiruv malakaviy ishi oldiga qo'yilgan maqsadga erishish maqsadida kirish, ikkita bob, olti paragraf va xulosadan iborat bo'lib, uning xajmi 67 sahifani tashkil etadi.

1 BOB. MA'MURIY JAVOBGARLIK TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI

1.1. MA'MURIY JAVOBGARLIK TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Ma'muriy javobgarlik masalasiga to'xtashdan oldin ma'muriy javobgarlik tushunchasini, uning mazmun-mohiyatini ochib berish lozim. Aksariyat huquqshunos olimlarning ishlarida ma'muriy javobgarlik tushunchasi berilgan bo'lib, xususan huquqshunos olim R.Alimovning "Ma'muriy huquq" darsligida "Ma'muriy javobgarlik – aybdorga nisbatan ma'muriy huquq normalarida ko'zda tutilgan doirada jazo qo'llash" deb ta'riflangan¹. Huquqshunos olimlar N.V.Brovko, M.B.Smolenskiy, YU.A Sokolovalarning "Administrativnoe pravo" darsligida "Ma'muriy javobgarlik deganda vakolatli organ yoki mansabdor shaxs tomonidan qo'llanishi mumkin bo'lgan yuridik javobgarlikning (jinoiy, intizomiy va moddiy javobgarlik turlari bilan bir qatorda) turi tushuniladi" deb ta'riflanadi². Huquqshunos olim L.B. Xvan fikricha ma'muriy javobgarlik-aybdorga nisbatan ma'muriy huquq normalarida ko'zda tutilgan doirada jazo qo'llashdir. YOki boshqacha qilib aytganda fuqaro yoki mansabdor shaxsning huquqni buzganlik uchun davlat oldidagi jinoiy bo'lmagan javobgarligidir³. Boshqa bir qator adabiyotlarda ma'muriy javobgarlik tushunchasiga deyarli bir xildagi ta'riflarni uchratish mumkin. Xususan ko'plab olimlarning ishlarida "*ma'muriy javobgarlik* – bu ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solingan, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan ma'muriy-protsessual tartibda ma'muriy jazoni qo'llashdir" degan ta'riflarni uchratish mumkin⁴. Ma'muriy javobgarlik tushunchasiga qonunchilik doirasida keltirilgan ta'rif O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik

¹ Alimov X.R., Maxmudov A.A., Ismoilov N.T. Ma'muriy huquq. Darslik. 2-nashr. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2002.— 95 b.

² Brovko N .V ., Smolenskiy M .B ., Sokolova YU .A.B 88 Administrativnoe pravo: Uchebnik dlya studentov vuzov. —Moskva: I K TS «MarT», Rostov n/D: Izdatelskiy tsentr «MarT», 2003. — 368 s. (Seriya «YUridicheskoe obrazovanie»)

³ Xvan L.B. Advokat i proizvodstvo po delam ob administrativnix pravonarusheniyax v Respublike Uzbekistan. Uchebnoe posobie. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – 160 s.

⁴Qarang: D.N.Baxrax, B.V.Rossinskiy, YU.N. Starilov Administrativnoe pravo: Uchebnik dlya Vuzov. – M.: Norma, 2004. 19-b.; Gabrichidze B.N., CHernyavskiy A.G., Kim-Kimen A.N. Administrativnoe pravo: Uchebnik. – M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2004. 7-b.

kodeksida uchramaydi. Biroq Jinoyat kodeksining 16-moddasida jinoyat uchun javobgarlik va uning asoslari mustahkamlanganligini, ma'muriy javobgarlik kodeksida esa ma'muriy javobgarlik tushunchasi aniq ko'rsatilmaganligini inobatga olgan holda biz O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik kodeksiga "Ma'muriy javobgarlik va uning asoslari" deb nomlangan alohida modda kiritilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi deb hisoblaymiz.

Ma'muriy huquq bo'yicha javobgarlikning asosini - ma'muriy majburlash tashkil etadi. Ma'muriy majburlash - davlat boshqaruvi jarayonida ma'muriy huquqbuzarlikni oldini olish, cheklash va aybdor shaxsni javobgarlikka tortish maqsadida shaxsning ongiga, yurish-turishiga moddiy, ma'naviy va jismoniy ta'sir etish hisoblanadi. Ma'muriy majburlash ma'muriy javobgarlik tushunchasiga qaraganda kengroq bo'lib, o'z ichiga nafaqat huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga ma'muriy javobgarlikni qo'llashni, balki ma'muriy huquqbuzarlikni oldini olish choralarini, ma'muriy huquqbuzarlikni cheklash choralarini va jamoat ta'siri choralarini olishi mumkin. Ma'muriy javobgarlik esa, ma'muriy huquqbuzarlik uchun qo'llaniladigan yuridik javobgarlikning bir turidir.

Boshqaruv jarayonida ma'muriy majburlash choralari quyidagicha namoyon bo'lishi mumkin:

davlat boshqaruv organlarining faoliyati sifatida, ya'ni majburlash choralarini faqat qonun talablarini yoki yuqori turuvchi davlat boshqaruv organlarining qonuniy talablarini ixtiyoriy ravishda bajarmagan shaxslarga nisbatan qo'llash;

davlat boshqaruvining usuli sifatida, ya'ni tashkilotlar va fuqarolarning hulqiga (yurish-turishiga) ta'sir etish.

Davlat hokimiyatidan qaerda foydalanilsa, majburlash choralarining elementlari barcha holatlarda mavjud bo'ladi. Hokimiyatni amalga oshirish uchun uning ko'rsatmalariga bo'ysunishni talab etadi. Bo'ysunish, odatda, ixtiyoriy bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri majburlashga tayanmaydi. Lekin bir qator holatlarda bo'ysunuv majburlash usullarisiz amalga oshirilsa ham, ularni ixtiyoriy deb aytish mumkin emas, bo'ysunuv bo'ysunuvchining hohish-irodasiga oid ravishda amalga oshiriladi. SHu bilan birga bo'ysunuvning ixtiyoriyligi har qanaqa majburlashning

yo`qligini bildirmaydi. Hokimiyat majburlashining elementlari qonunning va boshqaruv aktlarining barcha ko`rsatmalarida uchraydi, chunki ularning hammasi majburlovchi xarakterga ega va davlatning kuchiga tayanadi¹.

Huquqshunos olimi Alexin A.P. esa, ma'muriy javobgarlikni yuridik javobgarlikning barcha xususiyatlariga ega ekanligi bilan bir qatorda, quyidagi o`ziga xos xususiyatlarini xam ko`rsatib o`tadi:

birinchidan, ma'muriy javobgarlik qonunlar bilan xam, qonunosti hujjatlari bilan xam o`rnatiladi, ya'ni u o`zining me'yoriy-huquqiy asosiga egadir. Jinoiy javobgarlik – faqat qonunlar bilan, intizomiy javobgarlik – qonun va qonunosti hujjatlari bilan, moddiy javobgarlik – mexnat va fuqarolik qonunchiligi bilan belgilanadi;

ikkinchidan, ma'muriy javobgarlikning asosi bo`lib – ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanadi (qonun buzilishi va nojo`ya xatti-harakat qo`rinishida). Jinoiy javobgarlikda – jinoyat, intizomiy javobgarlikda – intizomiy nojo`ya xatti-harakat, moddiy javobgarlikda – moddiy zarar etkazish hisoblanadi;

uchinchidan, ma'muriy javobgarlik sub'ekti sifatida fuqarolar, mansabdor shaxslar va yuridik shaxslar namoyon bo`ladi. Jinoiy javobgarlikda – fuqarolar va mansabdor shaxslar, intizomiy javobgarlikda – xodim (jamoat sub'ektlarining intizomiy javobgarligi yuridik adabiyotlarda munozarali bo`lib kelmoqda), moddiy javobgarlikda - xodim (mexnat qonunchiligi bo`yicha), yuridik va jismoniy shaxslar (fuqarolik qonunchiligi bo`yicha) sub'ekt bo`lishi mumkin;

***to`rtinchidan***, ma'muriy huquqbuzarliklar uchun – ma'muriy jazo choralari qo`llaniladi. Jinoyat uchun – jinoiy jazo, intizomiy nojo`ya xatti-harakat uchun – intizomiy jazo, moddiy zarar etkazish uchun – mulkiy jazo qo`llaniladi;

beshinchidan, ma'muriy javobgarlik qonun hujjatlariga binoan keng

¹ YU.A. Tixomirov Administrativnoe pravo i protsess. Polniy kurs. Vtoroe izdanie, dopolnennoe i pererabotannoe / YU.A. Tixomirov – M.: Izd. Tixomirova M.YU., 2005. – 697 s.

doiradagi davlat organlari (mansabdor shaxslar) tomonidan qo'llaniladi. Jinoiy javobgarlik – sud organlari tomonidan, intizomiy javobgarlik – yuqori turuvchi davlat organi (mansabdor shaxs) tomonidan, moddiy javobgarlik – sud organlari tomonidan qo'llaniladi;

oltinchidan, ma'muriy javobgarlik sudlanganlik holatini yoki ishdan bo'shatishni yuzaga keltirmaydi, jinoiy javobgarlikda – sudlanganlik yuzaga keladi, intizomiyda – ishdan bo'shatish mumkin;

ettinchidan, ma'muriy javobgarlikni qo'llash uchun, intizomiy javobgarlikdan farqli ravishda, bo'ysunuvning bo'lishi shart emas¹.

YUridik adabiyotlarda ma'muriy javobgarlikni qo'llashning ikki asosi ko'rsatib o'tilgan: birinchidan, qonun – huquqiy (me'yoriy) asos sifatida; ikkinchidan, ma'muriy nojo'ya xatti-harakat, faktik asos sifatida.

Ma'muriy javobgarlik tushunchasini ochib berish bilan bir qatorda uning yuzaga kelish asoslarini o'rganish, ma'muriy javobgarlik qaysi holatlarda qo'llanadi degan savollarga javob berish lozim bo'ladi. SHu jihatdan ma'muriy majburlashning asosi - bu ma'muriy huquqbuzarlikdir. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 10-moddasiga binoan ma'muriy huquqbuzarlik deganda - qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi².

Ma'muriy javobgarlik:

- 1) inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilishni;
- 2) ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlashni;
- 3) ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarning o'z vaqtida va ob'ektiv ko'rib chiqilishini;

¹ Alexin A.P., Karmolitskiy A.A., Kozlov YU.M. Administrativnoe pravo. Uchebnik. – Zertsalo, 1998. S.282-283.

² O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 22.09.1994 y. 2015-XII-son Qonuni bilan tasdiqlangan.

- 4) bunday huquqbuzarliklarning oldini olishni;
- 5) fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruxida tarbiyalashni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi¹.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlariga asosan ma'muriy javobgarlikning asosiy printsiplari quyidagilardan iboratdir:

- Qonuniylik – davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiq harakat qilishini anglatadi. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarini ko'rib chiquvchi barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar fuqarolarga nisbatan ma'muriy javobgarlikni O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlariga qat'iy rioya qilgan holda hamda uning talablarini bajarish maqsadida amalga oshiradilar².

- O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Fuqarolarga o'z huquq va erkinliklarini himoya qilishda, davlat organlarida ma'lum bir ishlarning ko'rib chiqish vaqtida, bir xildagi shart-sharoitlar yaratib beriladi.

- Demokratizm printsiptining mazmuni shundan iboratki, unga ko'ra har bir ma'muriy huquqbuzarlik ishlari oshkora ko'rib chiqilib, ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs: ish materiallari bilan tanishib chiqishga, izohlar berishga, dalillar keltirishga, o'z iltimosini bayon etishga, ishni ko'rib chiqish vaqtida advokatning yordamidan foydalanishga, o'z ona tilida so'zlashishga va tarjimonning xizmatlaridan foydalanishga, ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat berishga haqlidir.

¹ Gabrichidze B.N., CHernyavskiy A.G., Kim-Kimen A.N. Administrativnoe pravo: Uchebnik. – M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2004. 169-b.

² Erkin Xojiev, To'liqin Xojiev. Ma'muriy huquq: Bakalavriatning 5380100 - YUrisprudentsiya yo'nalishi talabalari uchun darslik / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.X.Rustambaev. – T.: 2006. – 467- b

- Odatda, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs ishtirokida ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsning axloqini tuzatish, uni qayta tarbiyalashga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari jalb qilinadi.
- insonparvarlik tamoyili. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarini ko'rib chiquvchi davlat organlari va mansabdor shaxslar ma'muriy jazo va boshqa huquqiy ta'sir ko'rsatish choralari qo'llash vaqtida, jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamasligi kerak. Biron bir shaxs qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas. Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi huquqbuzarlik sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda etarli bo'ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishi kerak. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiquvchi davlat organlari va mansabdor shaxslar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan engilroq choralarni qo'llash orqali javobgarlikka tortish maqsadiga erishib bo'lmaydigan taqdirdagina, og'irroq jazo choralari qo'llashlari mumkin.- ayb uchun javobgarlikning muqarrarliligi tamoyillariga asoslanadi¹.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiquvchi davlat organlari va mansabdor shaxslar ma'muriy javobgarlikni belgilashda, ma'muriy huquqbuzarlikning xususiyati, huquqbuzarning shaxsi, uning aybdorlik darajasi, mulkiy ahvoli, engillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni inobatga olgan holda, adolatli va qonuniy jazo belgilanishini ta'minlashi lozim. SHaxs aynan bitta ma'muriy huquqbuzarlik uchun ikki marta javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Bu – odillik printsipining asosiy elementi bo'lib, qonuniylikni, fuqarolar huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga xizmat qiladi.

¹ Erkin Xojiev, To'lqin Xojiev. Ma'muriy huquq: Bakalavriatning 5380100 - YUrisprudentsiya yo'nalishi talabalari uchun darslik / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.X.Rustambayev. – T.: 2006. – 468- b

1.2. Ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaruvchi ma'muriy huquqbuzarlikning belgilari va yuridik tarkibi

Davlat boshqaruvi sohasida sodir etiladigan va ko'p uchraydigan huquqbuzarlik ko'rinishlaridan biri – bu ma'muriy huquqbuzarlikdir.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi ma'muriy huquqbuzarlikka quyidagicha ta'rif bergan: «Ma'muriy huquqbuzarlik deyilganda qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi» (Kodeksning 10-moddasi)¹. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunlarda nazarda tutilgan huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik, bosharti bu huquqbuzarliklar o'z xususiyatiga ko'ra jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lmagan taqdirda amalga oshiriladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik belgilarining xarakteristikasida eng muhimi qilmish (nojo'ya harakat) tushunchasidir². Bu irodaviy xulq-atvor ko'rinishi bo'lib, o'z ichiga xulq-atvorning ikki jihatini oladi: harakat yoki harakatsizlik. Harakat majburiyatlarni, qonun talablarini faol bajarmaslik, shuningdek taqiqlangan xarakatlarni bajarishltni tushuniladi. (ov qilish qoidalarini buzish, YHHN organining vakolatli xodimining transport vositasini to'xtatish to'g'risidagi talabini bajarmaslik va h.k.).

Harakatsizlik majburiyatni bajarmaslikning passiv shakli (yong'in xavfsizligi qoidasini bajarmaslik, erdan foydalanuvchi tomonidan yovvoyi o'tlar bilan kurash tadbirlarini ko'rmaslik va b). Ma'muriy huquqbuzarlikning xarakterli belgilari:

¹ O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 22.09.1994 y. 2015-XII-son Qonuni bilan tasdiqlangan.

² E.T.Xojiev, G.T.Xakimov. Ma'muriy huquq. Bakalavriatning 5A-380100 – yurisprudentsiya yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.Rustamboev. –T.: TDYUI nashriyoti, 2011. 224-b

1. Bu zararli oqibatlarni keltirib chiqargan yoki keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan, ijtimoiy munosabatlarga tajavuz qiluvchi g'ayriijtimoiy qilmishdir.
2. Bu g'ayrihuquqiy qilmish. Ma'muriy nojo'ya qilmish -bu ma'muriy ta'sir choralari bilan muhofaza qilinadigan ma'muriy va boshqa huquq tarmoqlari normalarini buzadigan qilmishdir.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi qonun analogiyasini man etadi, ma'muriy nojo'ya qilmishning zaruriy belgisi bo'lib huquqqa zidligi hisoblanadi. «Ma'muriy huquqbuzarlik uchun hech kim qonun hujjatlarida belgilangan asoslar va tartibdan boshqacha tarzda ta'sir ko'rsatish chorasiga tortilishi mumkin emas» deyiladi. O'zbekiston Respublikasining MJtKning 8-moddasida.

Ma'muriy javobgarlik shaxs tomonidan O'zbekiston Respublikasi MJtKda yoki boshqa normativ aktda nazarda tutilgan huquqbuzarlik sodir. qilingandagina yuzaga kelishi mumkin.

3. Bu aybli qilmish, ya'ni huquqbuzarning irodaviy, ongli munosabati bo'lib, unga nisbatan e'tiroz qo'zg'atadi, tanbehga sabab bo'ladi.

4. Ma'muriy jazo choralari qo'llanish mumkinligi ma'muriy huquqbuzarlikning umumiy xususiyati hisoblanadi. Ma'muriy sanksiyalarni qo'llash ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan barcha hollarda shart bo'lmasada, ularni qo'llanish mumkinligi ma'muriy huquqbuzarlik uchun shart bo'lgan alomatdir¹.

Ma'muriy huquqbuzarlikning belgilarini uning yuridik tarkibidan farq qilish lozim.

Yuridik tarkib deganda g'ayriijtimoiy qilmishni qonun bilan o'rnatilgan ma'muriy huquqbuzarlik deb hisoblash uchun zaruriy belgilari yig'indisi anglanadi. Ma'muriy huquqbuzarlik tarkibining elementlari bo'lib ob'ekt, ob'ektiv tomon, sub'ekt, sub'ektiv tomon hisoblanadi².

¹ Xamedov I. Administrativnoe pravo. Uchebnik.- T.: UMED, 2004. – 158 s.

² Xudoyberdieva V., Xojiev E. Ma'muriy huquq. O'quv qo'llanma.-T.:TDYUI,2001.-98 b.

Ma'muriy nojo'ya qilmishning ob'ekti - ijtimoiy munosabatlar. Muayyan qilmishlar mavjud ijtimoiy munosabatlarga zarar etkazishi mumkin bo'lganligi uchun g'ayriijtimoiy hisoblanadi va ma'muriy jazo choralari qo'llanish tahdidi ostida taqiqlab qo'yiladi. Ma'muriy nojo'ya qilmishning ob'ekti bo'lib har qanday ijtimoiy munosabat emas, balki ma'muriy jazo chorasi bilan muhofaza qilinadigan munosabatlar hisoblanadi.

Nojo'ya qilmishning ob'ektiv tomoni bu qilmishning ma'muriy huquq normalarida qayd qilingan tashqi namoyon bo'lishini tavsiflovchi belgilaridir. Ularning ichida eng asosiysi nojo'ya qilmishning o'zidir (talon-taroj, savdo qilish, bosh tortish va h.k.). Qilmish harakat va harakatsizlik ko'rinishlarida bo'lishi mumkin.

Qilmish-huquqbuzarlikning o'zagi, uning atrofida huquqbuzarlikning boshqa belgilari (usuli, vaqti, joyi va holati). Ko'p hollarda nojo'ya qilmish tarkibida joy (jamoat joylari, chegara zonasi, temir yo'l, aerodrom, shahar atrofida qatnovchi poezd, metro, vagonniig tomi va b) va vaqt (kechki vaqt va h.k.) belgilari mavjud bo'ladi.

Huquqbuzarlikni sodir qilish usuli, vositalari, etkazilgan zararining mikdori ham ko'p hollarda uning ob'ektiv tomonini tashkil qiluvchi belgilar qatoriga qo'shiladi.

Nojo'ya qilmishning sub'ekti bo'lib uni sodir qilgan, ya'ni harakatida qonunda bayon qilingan qilmish mavjud bo'lgan shaxs hisoblanadi.

Amaldagi qonunchilik bo'yicha ma'muriy huquqbuzarlikning sub'ekti sifatida quyidagilar tan olinadi:

individual (yakka) sub'ektlar: fuqarolar va maxsus ma'muriy-huquqiy maqomga ega bo'lgan shaxslar (transport haydovchilar, tashkilot xodimlari, rahbarlari, muqaddam ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxslar va ularga tenglaigirilgan yuridik shaxs tashkil qilmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar.

Hozirgi vaqtda ko'p huquqbuzarlik turlarining sub'ektlari sifatida mansabdor shaxslar emas, yuridik shaxslar tan olinadi (m:erlarni kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslantirish va er qonunlarini boshqacha tarzda buzish, qurilish sohasida huquqbuzarliklar va b. Masalan, O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrda qabul qilingan «Yuridik shaxslarning qurilish sohasida huquqbuzarlik uchun javobgarligi to'g'risida» qonunida yuridik shaxslarga ma'muriy jarima solinishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Fikrimizcha, yuqorida ta'kidlab o'tilgan masala ya'ni yuridik shaxslarning ma'muriy huquqbuzarligi va javobgarligi masalasi Ma'muriy javobgarlik kodeksida mustahkamlanishi lozim.

Ma'muriy huquqbuzarlikning sub'ektiv tomoni nojo'ya qilmish sub'ektivining o'zining g'ayrihuquqiy harakati yoki harakatsizligiga bo'lgan ruhiy munosabatini anglatadi. U qasd yoki ehtiyotsizlik shaklida ifodalanishi mumkin. Ayb -ma'muriy huquqbuzarlik sub'ektiv tomonining zaruriy belgisi.

Sub'ektiv tomonining majburiy belgisi bo'lgan qasd yoki ehtiyotsizlik ko'rinishidagi aybdan tashqari yana fakultativ belgilari (maqsad, bahona) ham bo'lishi mumkin¹.

Shaxs, uning qilmishida ma'muriy huquqbuzarlik tarkibining barcha elementlari mavjud bo'lgandagina, ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin. Nazariyada va amaliyotda ko'p hollarda ma'muriy xuhuqbuzarlikning jinoyat va intizomiy nojo'ya qilmish bilan munosabati to'g'risida masala uchrab turadi. Ayniqsa ma'muriy huquqbuzarlik bilan jinoyat o'rtasidagi farq masalasida turli fikrlarni uchratish mumkin. Ba'zi adabiyotlarda ma'muriy huquqbuzarlik (nojo'ya qilmish)da ijtimoiy xavfning yo'qligi tufayli u jinoyatdan farq qiladi, degan fikr bildiriladi.

To'g'ri, ma'muriy huquqbuzarlikning ta'rifi bayon qilingan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 10-moddasida ma'muriy huquqbuzarlikning belgisi sifatida uning ijtimoiy xavfliligi alohida

¹ Alimov X.R., Soloveva L.I. i dr. Administrativnoe pravo Respubliki Uzbekistan. Uchebnik dlya yuridicheskix vuzov. - T.: Adolat, 1998. – 364 s.

ajratib ko'rsatilmagan. Biroq, shu moddaning o'zida muayyan sohalarda ijtimoiy munosabatlarga (shaxs, ularning huquq va erkinliklari, mulkchilik, davlat va jamoat tartibi va h.k.) tajovuz qilish, g'ayri huquqiy, aybli xususiyatlari uning ijtimoiy xavfliligini bildiradi, deb fikr yuritishga asos bo'ladi. Bu qilmishlar ijtimoiy xavfli bo'lganligi uchun ham qonun hujjatlarida ular uchun huquqiy (ma'muriy) javobgarlikka tortish nazarda tutilgan bo'ladi¹.

Ikkinchidan, barcha davlat va huquq nazariyasiga oid adabiyotlarda ijtimoiy xavflilik umuman huquqbuzarlik (jumladan, ma'muriy huquqbuzarlik)ning majburiy belgisi sifatida qayd qilinadi. Demak, ushbu qoidaga asosan ma'muriy nojo'ya qilmish, agar u ijtimoiy xavfli deb tan olinmasa, huquqbuzarlikning bir turi dsb hisoblanmasligi kerak bo'ladi. Binobarin, ma'muriy huquqbuzarlik bilan jinoyat o'rtasidagi farqni ularning birida ijtimoiy xavflilik alomati bor, ikkinchisida yo'qligida dsb qayd qilmasdan, balki bu xavflilikning turli darajada ekanligida, deb tan olish asosli bo'ladi.

Jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlikni ajratuvchi yuridik mezonlar jinoyat va ma'muriy qonunchilikda mavjud bo'libg tegishli huquqbuzarlik tarkiblarining barcha elementlari (ob'ekt, ob'ektiv tomon, sub'ekt, sub'ektiv tomon)ga tegishli bo'lishi mumkin. Masalan, qonunga binoan ba'zi jinoyatlarning sub'ekti 13-14 yoshga to'lgan shaxslar bo'lishi mumkin bo'lgani holda ma'muriy huquqbuzarlik uchun 16 yosh belgilangan; transport haydovchisi tomonidan yo'l qoidalarini buzilishi natijasida jabrlan)g'vchiga engil tan jarohati etkazilishi ma'muriy huquqbuzarlik hisoblansa, shu harakatlar oqibatida shaxsga og'ir yoki o'rtacha og'irlikdagi zarar etkazilishi jinoyat deb tan olinadi. SHu uchun huquqbuzarlikning xarakterini, uning yuridik tabiatini aniqlash uchui shunday harakat uchun javobgarlik belgilaydigan qonunchilikni har tomonlama taqqoslab o'rganish talab qilinadi. Zero bu juda katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi talabidan ham kelib chiqadi: «Ushbu kodeksda nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun ma'muriy

¹ O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga sharhlar. Mualliflar jamoasi. T.Adolat. 2000. 24-25-b.

javobgarlik, basharti bu huquqbuzarlik o'z xususiyatiga ko'ra jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lmagan taqdirda, amalga oshiriladi. Ma'muriy huquqbuzarlikning intizomiy nojo'ya qilmishdan farqi shundaki, keyingisi, qoida tariqasida, mehnat, xizmat munosabatlari jarayonida yuz beradi.

1.3. Ma'muriy javobgarlikda jazo choralari va ma'muriy javobgarlikka tortish vakolatiga ega sub'ektlar

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 22-moddasiga binoan ma'muriy jazo javobgarlikka tortish chorasi bo'lib, u ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek ana shu huquqbuzarning o'zi tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining MJtKda -ma'muriy jazo choralarining quyidagi turlarini belgilangan: jarima; ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish; ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni musodara qilish; muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositasini boshqarish huquqidai, ov qilish huquqidan) mahrum qilish; ma'muriy qamoqqa olish.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida litsenziyani yoki malaka atgestati (guvoxnomasi)ni chaqirib olish jazosini ham nazarda tutiladi¹.

Ma'muriy jazo choralari vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan maxsus individual (yakka) aktlar chiqarish yo'li bilan qo'llaniladi. Jazo choralari ma'muriy majburlashning boshqa turlaridan shu bilan farq qiladiki, jazo choralari huquqbuzar uchun «jazolangan xolati»ni vujudga keltiradi. Bu holat

qonunda belgilangan muddatda davom etib, huquqbuzarlarni tarbiyalashning bir elementi bo'lib xizmat qiladi¹.

¹ O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. T.Adolat.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi ma'muriy jazo choralari asosiy va qo'shimcha choralarga ajratadi. Ashyolarni haqini to'lash sharti bilan olib kuyish yoki musodara qilish ham asosiy, ham qo'shimcha ma'muriy jazo tariqasida, qonun bilan nazarda tutilgan boshqa ma'muriy jazo choralari esa faqat asosiy jazo tariqasida qo'llanishi mumkin.

Bitta ma'muriy huquqbuzarlik uchun yo asosiy yoki ham asosiy, ham qo'shimcha jazo chorasi qo'llanilishi mumkin.

Jarima ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga pul undirishdir.

Jarimaning miqdori ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan vaqtdagi, davom etayotgan ma'muriy huquqbuzarlik uchun esa bu huquqbuzarlik aniqlangai vaqtdagi belgilab qo'yilgan eng kam oylik ish haqidan kelib chiqqai holda belgilanadi.

Fuqarolarga solinadigan jarimaning eng kam miqdori eng kam ish haqining ellikdan bir qismidan, mansabdor shaxslarga esa - o'ndan bir qismidan kam bo'lmasligi kerak. Fuqarolarga solinadigan jarimaning- eng ko'p miqdori eng kam ish haqining besh baravaridan, mansabdor shaxslarga esa o'n baravaridan oshmasligi kerak. Qonunlarda nazarda tutilgan ayrim hollarda ba'zi huquqbuzarliklar uchun fuqarolarga - eng kam ish haqining o'n baravarigacha va mansabdor shaxslarga - o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solinishi mumkin. Xuddi shu miqdorda jarima, masalan, O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 29 avgustdagi «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat jinoyat protsessual kodekslari hamda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonuni bilan o'rnatildi.

Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish, shu ashyoni majburiy tartibda tortib olib, uni keyinchalik sotib yuborish hamda sotishdan

¹ E.T.Xojiev, G'.T.Xakimov. Ma'muriy huquq. Bakalavriatning 5A-380100 – yurisprudentsiya yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.Rustamboev. –T.: TDYUI nashriyoti, 2011. 228-b

tushgan pulni ashyoning egasiga tortib olingan ashyoni sotish harajatlarini chegirib tashlagan holda topshirishdan iboratdir.

Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni musodara qilish shu ashyoni haqini to'lamasdan majburiy tarzda davlat mulkiga o'tkazishdan iborat bo'lib, bu chora tuman (shahar) sud'yasi tomonidan qo'llaniladi. Basharti O'zbekiston Respublikasi qonunlarida boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, faqat huquqbuzarning shaxsiy mulki bo'lgan ashyogina musodara qshshnishi mumkin.

Muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositalarini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) mahrum qilish chorasi tuman (shahar) sud'yasi tomonidan uch yilgacha muddatga qo'llaniladi. Bunday huquqdan mahrum qilish muddati o'n besh kundan kam bo'lmasligi kerak¹.

O'q otar qurollar va o'q-dorilarni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish va musodara qilish asosiy tirikchiligi ovchilik bo'lgan shaxslarga, maxsus huquqdan (transport vositalarini boshqarish) mahrum qilish nogironligi sababli transport vositalaridan foydalanadigan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas. Transport vositalarini alkogol ichimlikdan, giyohvandlik vositasi ta'siridan mast bo'lgan holda yoki o'zgacha tarzda mast bo'lgan holda boshqarish hollari, shuningdek o'zlari ishtirokchi bo'lgan yo'l-transport hodisalari sodir etilgan joydan ketib qolish hollari bundan mustasnodir².

Ma'muriy qamoqqa olish uch sutkadan o'n besh sutkagacha muddatga, favqulodda holat tartibi sharoitida esa jamoat tartibiga tajovuz qilganligi uchun - o'ttiz sutkagacha muddatga qo'llaniladi. Ma'muriy qamoqqa olish tuman (shahar) sud'yasi tomonidan, favqulodda holat tartibi sharoitida esa, shuningdek harbiy komendant yoki ichki ishlar organi boshlig'i tomonidan belgilanadi.

Ma'muriy qamoqqa olish chorasi homilador ayollarga, uch yoshgacha bolasi bo'lgan ayollarga, o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolasini yakka o'zi tarbiyalayotgan

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga sharhlar. Mualliflar jamoasi. T.Adolat. 2000. 447-493-b.

² Xamedov I. Administrativnoe pravo. Uchebnik.- T.: UMED, 2004. – 158 s.

shaxslarga, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga, birinchi va ikkinchi guruh nogironlariga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas¹.

O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida litsenziya va malaka attestati (guvohnomasi)ni chaqirib olishdan iborat jazo chorasi belgilangan. Bunday hujjatlar ruxsat berish tizimi tartibida va muayyan muddatga beriladi. Litsenziya va malaka aggestati muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beradi, ularni chaqirib olish esa ,bu huqukdan mahrum qiladi. SHu sababli bu chora ham maxsus huqukdan mahrum qilish jazosining bir turi bo'ladi².

Litsenziyani chaqirib olish huqukdan mahrum qilish chorasidan nima bilan farq qiladi? Birinchidan, huqukdan mahrum qilish faqat fuqarolarga nisbatan qo'llaniladi. Litsenziyani chaqirib olish esa yuridik shaxslarga ham qo'llaniladigan ta'sir chorasi hisoblanadi. Ikkinchidan, huqukdan mahrum qilish uch yilgacha muddatga amalga oshiriladi. Litsenziya va malaka attestatini qaytarib olish tamoman muddatsiz bo'ladi. Biroq, bu shaxs litsenziya yoki malaka attestatidan umrbod mahrum bo'ladi, degan so'z emas. SHaxs kerakli hujjatlarni takdim etib, to'lovlarni to'laganidan so'ng yangi litsenziya olishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik kodeksining XVIII bobi "Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarining taalluqliligi"³ deb nomlanib unda organlar ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiqish va ma'muriy javobgarlikka tortish vakolatiga ega: Ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalari (245-modda), Xo'jalik sudlari (245-1-modda), Adliya organlari (245-2-modda), Ma'muriy komissiyalar (246-modda), Voyaga etmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar (247-modda), Ichki ishlar (militsiya) organlari (248-modda), Davlat yong'indan saqlash nazorati organlari (249-modda), Temir yo'l transporti va metropoliten organlari (250-modda), Havo transporti organlari (251-modda), Suv transporti organlari (252-modda), Davlat kichik hajmdagi kemalar inspeksiyasi organlari (253-modda), SHahar va shaharlararo yo'lovchi tashiydigan

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga sharhlar. Mualliflar jamoasi. T.Adolat. 2000. 447-493-b.

² Nazarov K. Ma'muriy huquq. O'quv qo'llanma. —T.: SamDU, 2004. - 214 b.

³ O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 22.09.1994 y. 2015-XII-son Qonuni bilan tasdiqlangan.

(254-modda), avtomobil transporti va elektr transporti organlari, Mehnat bo'yicha davlat huquqiy va texnik inspektorlari (255-modda), Mudofaa vazirligi organlari (256-modda), Davlat sanitariya nazorati organlari (257-modda), O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi (258-modda), Ichki ishlar vazirligi va Milliy xavfsizlik xizmatining sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi tibbiy xizmatlar: Davlat veterinariya nazorati organlari (259-modda), O'zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi organlari (260-modda), Tabiatni muhofaza qiluvchi organlar (261-modda), Bojxona organlari (262-modda), O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligining davlat inspeksiya organlari (263-modda), Davlat soliq organlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari (264-modda), Nazorat taftish bosh boshqarmasi organlari (264-1-modda), Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish organlari (265-modda), Qishloq xo'jaligidagi mashinalar va qurilmalarning texnik holatini nazorat qiluvchi bosh davlat inspeksiyasi organlari (266-modda), O'zbekiston Respublikasi Er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining organlari (266-1-modda), Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining "O'zsuvnazorat" respublika suv inspeksiyasi organlari (266-2-modda), Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'larini sertifikatsiyalash va ularning sifatini nazorat qilish davlat markazi organlari (266-3-modda), Davlat statistika organlari (267-modda), Bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organlari (267-1-modda), Davlat probir nazorati organlari (268-modda), Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash organlari (268-1-modda), Arxitektura va qurilish organlari (268-2-modda)¹.

¹ O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 22.09.1994 y. 2015-XII-son Qonuni bilan tasdiqlangan.

2.BOB. Ma'muriy javobgarlikka tortish, undan ozod qilish va uni chegaralashning tashkiliy-huquqiy asoslari

2.1. Ma'muriy javobgarlikka tortishning va jazoni qo'llashning tashkiliy-huquqiy asoslari

YUqoridagi bobda biz ma'muriy javobgarlik tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, shuningdek uni keltirib chiqaruvchi asos sifatida ma'muriy huquqbuzarlik masalasiga to'xtalib o'tdik. Bitiruv malakaviy ishimizning ushbu qismida biz ma'muriy javobgarlik ishlarini yuritish, javobgarlikka tortish, undan ozod qilish va uning chegaralashning tashkiliy-huquqiy asoslari haqida fikr yuritamiz.

Ma'muriy javobgarlik mavzusi bilan bog'liq ilmiy-nazariy masalalarni tadqiq etishda fikrimizcha ikki asosiy jihatga e'tibor qaratish lozim:

Birinchisi – bu ma'muriy javobgarlikka tortishning huquqiy asoslari

Ikkinchisi – bu ma'muriy javobgarlikka tortishning tashkiliy asoslari

Ma'muriy javobgarlikka tortishning huquqiy asoslari deganda fikrimizcha ma'muriy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik asoslari belgilangan qonunchilik asoslari tizimi tushuniladi. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy javobgarlik asoslarini belgilovchi asosiy huquqiy asos bu -O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks hisoblanadi. Ma'muriy javobgarlik asoslari boshqa xujjatlarda ham o'z aksini topishi mumkin. Xususan O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 1-moddasiga asosan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari MJTK, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining va Vazirlar Kengashining

qarorlari, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlaridan iboratdir deyilgan¹.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning

SHuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2000 yil 15 dekabrda qabul qilingan "Qurilish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun yuridik shaxslarning javobgarligi to'g'risida"gi qonuni ham ma'muriy javobgarlikning huquqiy asosi hisoblanadi².

SHuningdek harbiy xizmatchilar va harbiylashgan qismlarda faoliyat ko'rsatayotgan shaxslarning ma'muriy javobgarligi ushbu idoralarning Nizomlarida ham belgilanishi mumkin. Ma'muriy javobgarlikning huquqiy asoslari sifatida shuningdek ma'muriy javobgarlikni qo'llashga vakolatli davlat organlarining ma'muriy javobgarlikni qo'llash bilan bog'liq qonunosti xujjatlari, sud organlarining aktlarini kiritish ham mumkin.

Ma'muriy javobgarlikka tortishning tashkiliy asoslari deganda – ma'muriy javobgarlikka tortish bilan bog'liq tashkiliy va texnik harakatlar, ma'muriy javobgarlikni qo'llash bilan bog'liq tashkiliy faoliyatni tushunish lozim. Ushbu harakatlar yuridik adabiyotlarda ma'muriy protsess deb ataladi va ma'muriy javobgarlikka tortish bilan bog'liq jarayon ma'muriy protsessning bir turi hisoblanadi. Bu borada bir qator olimlarning fikrlarini keltirib o'tish mumkin. Xususan V.Tadevosyanning fikriga ko'ra, ma'muriy protsess bu - ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi nizolarni hal etishga qaratilgan muayyan faoliyat turidir. A.A.Melnikovaning ta'kidlashicha esa, ma'muriy protsessning predmeti bo'lib ma'muriy organlarning vakolatiga taalluqli bo'lgan nizoli masalalarni hal etish va ma'muriy ta'sir choralarini qo'llash faoliyati hisoblanadi.

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 22.09.1994 y. 2015-XII-son Qonuni bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan birgalikda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995 yil, 3-son, 6-modda

² O'zbekiston Respublikasining "Qurilish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun yuridik shaxslarning javobgarligi to'g'risida"gi qonuni. 15.12.2000 y. 173-II-son Qonuni bilan qabul qilingan. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2001 y. 1-2-son, 21-modda

I.A.Xamedov, L.B.Xvan va I.M.TSaylarning «Administrativnoe pravo Respubliki Uzbekistan» darsligida mualliflar ma'muriy protsessga ma'muriy organlar yoki sud tomonidan ma'muriy huquq tomonidan o'rnatilgan individual-konkret ommaviy tisdagi ishlarni hal etishga qaratilgan faoliyatdir, deb ta'rif berishdi¹.

Jumladan ma'muriy javobgarlikka tortishning tashkiliy asoslariga ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomani tuzish, huquqbuzarni ushlab keltirish, ma'muriy yo'l bilan ushlab turish; shaxsni ko'rikdan o'tkazish va ashyolarni ko'zdan kechirish, ashyolar va hujjatlarni olib qo'yish, transport vositalarini ushlab turish va ko'rikdan o'tkazish ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish, ma'muriy javobgarlikni belgilash va uni ijro etish bilan bog'liq tashkiliy faoliyatni kiritishimiz mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiqish jarayonida quyidagi shaxslar ishtirok etishi mumkin:

1. Ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs bo'lib, u ish materiallari bilan tanishib chiqish, izohlar berish, dalillar keltirish, o'z iltimosini bayon etish, ishni ko'rib chiqish vaqtida advokatning yuridik yordamidan foydalanish, o'z ona tilida so'zlashga va tarjimonning xizmatlaridan foydalanish kabi huquqlardan foydalanadi².

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs ishtirokida ko'rib chiqiladi. Mazkur shaxsga ishni ko'rib chiqish joyi va vaqti haqida xabar qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar bo'lgan va undan ishni ko'rib chiqishni kechiktirish xususida hech qanday iltimos tushmagan hollardagina ish uning ishtirokisiz ko'rib chiqilishi mumkin³.

Basharti sodir etgan huquqbuzarligi uchun O'z.R.MJtKda ma'muriy qamoqqa olish, ashyolarini musodara qilish yoki haqini to'lash sharti bilan olib

¹ Qarang: Xamedov I.A., Xvan L.B., TSay I.M. Administrativnoe pravo Respubliki Uzbekistan. Obshaya chast: Uchebnik: Un-t mirovoy ekonomiki i diplomatii, Tashk. gos. yurid. in-t. – Tashkent: KONSAUDITINFORM-NASHR, 2012. – C. 403.

² Alimov X.R., Maxmudov A.A., Ismoilov N.T. Ma'muriy huquq. Darslik. 2-nashr. - T.: O'zR IIV Akademiyasi, 2003.-132-b.

³ Xojiev E. Ma'muriy javobgarlik // Ilmiy-ommabop risola. - T.: TDYUI, 2006. 39-b

qo'yish choralarini qo'llash nazarda tutilgan bo'lsa, ma'muriy xuquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vaqtida ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning qatnashishi shart. Mazkur shaxs bunday ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishda qatnashishdan bo'yin tovlagani taqdirda u ma'muriy ishlar bo'yicha sudyaning ajrimiga binoan ichki ishlar (militsiya) organi tomonidan majburan olib kelinishi mumkin.

Eksport qilinishi man etilgan buyumlar va mahsulot O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqib ketilishi bilan bog'liq bo'lib, musodara chorasi qo'llanilishi mumkin bo'lgan ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi ish bojxona organi tomonidan alohida hollarda, agar ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo'lsa yoki uning qaerdaligini aniqlashning iloji bo'lmasa, ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning ishtirokisiz ko'rib chiqiladi.

2. Jabrlanuvchi - Ma'muriy huquqbuzarlik yo'li bilan ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar etkazilgan shaxs bo'lib, ish materiallari bilan tanishib chiqish, ko'rsatuvlar berish, dalillar keltirish, iltimoslar qilish, ishni ko'rib chiqish vaqtida advokatning yuridik yordamidan foydalanish, o'z ona tilida so'zlashga va tarjimonning xizmatlaridan foydalanish, ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat berish kabi huquqlarga ega.

3. Qonuniy vakillar - voyaga etmagan yoki o'zining jismoniy nuqsonlari yoxud ruhiy kasalliklari sababli ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar yuzasidan o'z huquqini o'zi amalga oshirolmaydigan – ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning yoki jabrlanuvchining manfaatlarini ifodalovchi shaxslar (ota-onalari, er yoki xotinlari, voyaga etgan bolalari, farzandlikka oluvchilar, vasiylar, homiylar).

4. Advokat¹ ya'ni javobgarlikka tortilayotgan shaxsning himoyasini ta'minlovchi shaxs.

¹ Xvan L.B. Advokat i proizvodstvo po delam ob administrativnix pravonarusheniyax v Respublike Uzbekistan. Uchebnoe posobie. - T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. - 58 s.

5. Guvoh. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha aniqlanishi kerak bo'lgan biron-bir holatdan voqif bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday shaxs.

6. Ekspert - ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritayotgan organ (mansabdor shaxs) tomonidan maxsus tushunchaga ega bo'lish zarurati tug'ilgan hollarda tayinlanadi.

7. Tarjimon. Zarur hollarda ish yuritilayotgan tilni tushunmaydigan ishtirokchilar uchun tayinlanadigan shaxs.

Ma'muriy huquqbuzarlik ishlari ko'rib ma'muriy javobgarlik belgilanayotganda jarayonda ishtirok etayotgan har bir shaxsning huquq va majburiyatlaridan kelib chiqib fikrlari ob'ektiv o'rganilishi va ma'muriy javobgarlikni qo'llovchi sub'ekt tomonidan e'tiborga olinishi javobgarlik chorasini qo'llashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik ishi ko'rib chiqishning tashkiliy bosqchilaridan biri bu ma'muriy huquqbuzarlik bo'yicha bayonnoma yuritish bo'lib, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganligi to'g'risidagi bayonnoma vakolatli mansabdor shaxs tomonidan tuziladi¹.

Buzilishi ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan qoidalarga rioya etilishini tekshirish va nazorat qilish qonun hujjati bilan zimmasiga yuklatilgan tegishli organning vakolatli mansabdor shaxsi ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomani tuzadi.

Bayonnomani tuzish vaqtida huquqbuzarga uning huquq va burchlari tushuntiriladi va bu xususda bayonnomaga yozib qo'yiladi².

Basharti fuqaro:

- o'zi sodir etgan huquqbuzarlik faktiga e'tiroz bildirmasa;
- va unga joyning o'zida solinadigan jarimaning miqdori eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan oshmasa yo'l harakati qoidalarini buzganlik to'g'risidagi ishlar yuzasidan esa bir qismidan;

¹ Xamedov I. Administrativnoe pravo. Uchebnik. - T.: UMED, 2004. - 174 s.

² Xojiev E. Ma'muriy huquqda javobgarlik // J. Qonun himoyasida. 1999. № 9. 17-b

- shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan oʻzga hollarda bayonnoma tuzilmaydi.

Jarima toʻlaganligi toʻgʻrisida aybdorga belgilangan shakldagi kvitantsiya beriladi¹.

Maʼmuriy huquqbuzarlik ishini koʻrib chiqqan organ va vakolatli shaxs maʼmuriy jazoni qoʻllash xaqidagi yoxud maʼmuriy javobgarlikdan ozod qilish haqidagi qaror qabul qiladi. Agar huquqbuzarlik ishini koʻrib chiqqan organ va vakolatli shaxs maʼmuriy jazoni qoʻllash xaqidagi qaror qabl qilsa, maʼmuriy jazo huquqbuzarlik sodir etilgan kundan boshlab, davom etayotgan huquqbuzarliklar uchun esa, huquqbuzarlik aniqlangan kundan boshlab ikki oydan kechiktirmay qoʻllanilishi mumkin².

Jinoyat ishini qoʻzgʻatish rad etilgan yoki jinoyat ishi tugatilgan boʻlsa-yu, lekin huquqbuzarning harakatlarida maʼmuriy huquqbuzarlik alomatlari mavjud boʻlsa, maʼmuriy jazo chorasi jinoyat ishi qoʻzgʻatishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish toʻgʻrisida qaror qabul qilingan kundan boshlab bir oydan kechiktirmay qoʻllanilishi mumkin.

2.2. Oʻzbekiston Respublikasida maʼmuriy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik asoslari

Oʻzbekiston Respublikasining maʼmuriy javobgarlik kodeksi maxsus qismi 5-14 boblarida Oʻzbekiston Respublikasida maʼmuriy huquqbuzarlik sifatida belgilangan va javobgarlik asoslari oʻrnatilgan ijtimoiy zararli qilmishlar oʻrin egallagan boʻlib ular quyidagilardir:

Fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovuz qiladigan huquqbuzarliklar uchun maʼmuriy javobgarlik (40-51 moddalar). Ushbu huquqbuzarliklar turkumiga tuhmat (40-modda), haqorat qilish (41-modda), davlat tili toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarini buzish (42-modda), fuqarolarning murojaatlari toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarini buzish (43-modda), Hujjatlar bilan tanishib chiqishni asossiz

¹ Erkin Xojiev, Toʻlqin Xojiev. Maʼmuriy huquq: Bakalavriatning 5380100 - YUrisprudentsiya yoʻnalishi talabalari uchun darslik / Masʼul muharrir: yu.f.d., prof. M.X.Rustambaev. – T.: 2006. 106-b.

² Baxromov X., Selimanova S. Administrativnaya otvetstvennost: obsoyatelstva, vliyayuyue na naznachenie nakazaniya. // J. Huquq.Pravo. Law. - 2005. - №3. - S. 78-79.

ravishda rad etish (44-modda) fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish (45-modda), fuqaroga ma'naviy yoki moddiy zarar etkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni oshkor etish (46-modda), bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik (47-modda), vasiylik huquqini suiiste'mol qilish (48-modda), mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (49-modda), mahalliy mehnat organlari tomonidan yuborilgan fuqarolarni ishga olishdan bosh tortish (50-modda), mehnatga majburiy tarzda majburlov (51-modda) kiradi¹.

Kodeksning 6-bobida ***aholi sog'lig'ini saqlash sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik*** (52-59 moddalar) asoslari belgilangan bo'lib, ular quyidagilardir:

Engil tan jarohati etkazish (52-modda), sanitariya qonun hujjatlarini buzish (53-modda), epidemiyalarga qarshi kurash qoidalarini buzish (54-modda), radiatsion xavfsizlikka doir qoidalar normalar, yo'riqnomalar va boshqa talablarni buzish (55-modda), giyohvandlik vositalarini yoki psixotrop moddalarni oz miqdorda g'ayriqonuniy tarzda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish (56-modda), tanosil kasalligi yoki OITS (orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi) yuqadigan manbani yashirish (57-modda), tanosil kasalligiga yoki OITSGa uchragan shaxslarning tekshirishdan bo'yin tovlashi (58-modda), OITS yuqqan-yuqmaganligini aniqlash uchun tibbiy ko'rikdan o'tkazishda, shuningdek tibbiy va kosmetik muolajalarni o'tkazishda xavfsizlikni etarli darajada ta'minlamaganlik (59-modda)².

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda shuningdek ***Mulkka tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarliklar*** (60-64 moddalar) belgilangan bo'lib, ushbu turdagi huquqbuzarliklarga quyidagilar kiradi:

Tabiiy resurslarga egalik huquqini buzish (60-modda), oz miqdorda talon-toroj qilish (61-modda), topib olingan mol-mulkni yashirish (62-modda),

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 22.09.1994 y. 2015-XII-son Qonuni bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan birgalikda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995 yil, 3-son, 6-modda

² Xojiev E. Ma'muriy javobgarlik // Ilmiy-ommabop risola. - T.: TDYUI, 2006. 39-b

g'ayriqonuniy ov mahsulotlarini qabul qilish (63-modda), tarix yoki madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish qoidalarini buzish (64-modda) kabi huquqbuzarlik uchun javobgarlik asoslaridir¹.

MJtKning 8-bobida ***tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik*** (65-96 moddalar)² asoslari mustahkamlangan bo'lib ular quyidagilardir:

Erlardan xo'jasizlarcha foydalanish yoki ularni yaroqsiz xolga tushirish (65-modda), er berish tartibini buzish (66-modda), vaqtincha egallab turilgan erlarni o'z vaqtida qaytarib bermaslik yoki ularni o'z o'rnida foydalanish uchun yaroqli xolga keltirmaslik (67-modda), xo'jalik ichidagi er tuzish loyihalaridan o'zboshimchalik bilan chetga chiqish, davlat er kadastri yuritish qoidalarini buzish (68-modda), chegara va cheklov belgilarini yo'q qilish yoki shikastlantirish (69-modda), er osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish talablarini buzish (70-modda), er osti boyliklarini geologik jihatdan o'rganish ishlarini olib borish qoidalarini buzish (71-modda), suv zaxiralarini muhofaza qilish qoidalarini buzish (72-modda), zararli moddalar va qorishmalarga oid operatsiyalarni kema hujjatlarida qayd etish majburiyatlarini bajarmaslik (73-modda), suvdan foydalanish qoidalarini buzish (74-modda), suvlarning davlat hisobini yuritish qoidalarini buzish (75-modda), suv xo'jaligi inshootlari va qurilmalarini shikastlantirish, ulardan foydalanish qoidalarini buzish (76-modda), o'rmon fondi erlaridan foydalanish qoidalarini buzish (77-modda), kesiladigan o'rmon fondidan foydalanish tartibini buzish (78-modda), daraxtlar, butalar, boshqa o'rmon o'simliklari va nihollarni g'ayriqonuniy ravishda kesish, shikastlantirish yoki yo'q qilish (79-modda), o'rmonlarni tiklash qoidalarini buzish (80-modda), qizil kitobga kiritilgan o'simliklarni yig'ish (81-modda), alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tartibini buzish (82-modda), o'rmon uchun

¹ Erkin Xojiev, To'liq Xojiev. Ma'muriy huquq: Bakalavriatning 5380100 - YUrisprudentsiya yo'nalishi talabalarini uchun darslik / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.X.Rustambaev. – T.: 2006. 108-b.

² Qarang: O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 22.09.1994 y. 2015-XII-son Qonuni bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan birgalikda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995 yil, 3-son, 6-modda

foydali faunani yo`q qilib yuborish (83-modda), o`rmonlarda yong`in xavfsizligi talablarini buzish (84-modda), ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlarni atmosfera havosiga chiqarib tashlash, unga zararli fizikaviy ta`sir ko`rsatish yoki atmosfera havosidan belgilangan talablarni buzgan holda foydalanish (85-modda), atmosferaga chiqariladigan zararli moddalarni tozalash inshootidan foydalanish qoidalarini buzish, shuningdek undan foydalanmaslik (86-modda), chiqindilarda ifloslantiruvchi moddalar normativdan ortiq bo`lgan transport va boshqa harakatlanuvchi vositalar va qurilmalarni tayyorlash xamda foydalanishga chiqarish (87-modda), atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya qilmaslik (88-modda), o`simliklarni himoya qilish vositalari va boshqa dorilarni tashish, saqlash va qo`llanish qoidalarini buzish (89-modda), ishlatish taqiqlangan va ishga yaroqsiz bo`lib qolgan kimyoviy moddalarni zararsizlantirish qoidalarini buzish (89-1-modda), ov qilish yoki baliq tutish qoidalarini, shuningdek hayvonot dunyosidan foydalanishning boshqa turlarini amalga oshirish qoidalarini buzish (90-modda) va yana bir qator moddalarda nazarda tutilgan huquqbuzarliklar¹ uchun javobgarlik asoslari belgilangan.

Bitiruv malakaviy ishimizning xajm uchun belgilangan qoidalaridan kelib chiqib, biz MJtKning maxsus qismida belgilangan ma`muriy huquqbuzarliklar uchun javobgarliklar turkumi va ularning barchasi xususida fikr yuritish imkoniyati bo`lmaydi. SHu bois biz umumiy boblarda ko`rsatilgan javobgarlik asoslari xususida fikr yuritamiz. Xususan MJtK ning 9-bobida sanoatdagi, qurilishdagi va issiqlik hamda elektr energiyasidan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma`muriy javobgarlik (97-103 moddalar), 10-bobida Qishloq xo`jaligidagi huquqbuzarlik, veterinariya-sanitariya qoidalarini buzganlik uchun ma`muriy javobgarlik (104-112 moddalar), 11-bobida transportdagi, yo`l xo`jaligi va aloqa sohalaridagi huquqbuzarliklar uchun ma`muriy javobgarlik (113-156 moddalar), 12-bobida fuqarolarning turar joy huquqlariga taalluqli, kommunal xizmat va

¹ Qarang: O`zbekiston Respublikasining Ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksi. O`zbekiston Respublikasi 22.09.1994 y. 2015-XII-son Qonuni bilan tasdiqlangan. O`zbekiston Respublikasi qonunlari bilan kiritilgan o`zgartirish va qo`shimchalar bilan birgalikda. O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995 yil, 3-son, 6-modda

obodonlashtirish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarliklar (157-163 moddalar), 13-bobida esa savdo tadbirkorlik va moliya sohalaridagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik (164-179-2 moddalar), 14-bobida odil sudlovga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik (180-182 moddalar), 15-bobda jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik (183-192 moddalar), 16-bobda boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik (193-241 moddalar) asoslari belgilangan¹.

2.3. Ayrim toifadagi shaxslar (maxsus sub'ektlar)ning javobgarligi masalalari

Ma'muriy javobgarlik masalasi xususida fikr bildirganda yuqoridagi paragraflarda ma'muriy huquqbuzarlik turlari, shuningdek jazo turlarini klassifikatsiyasidan tashqari, ma'muriy javobgarlikka tortiluvchi shaxslar doirasini ham tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan yuridik adabiyotlarda ma'muriy javobgarlikning maxsus sub'ektlari xususida fikr bildiriladi. YA'ni ma'muriy javobgarlikka tortilayotganda unga ma'lum bir belgilariga asosan javobgarlikka tortishda o'ziga xos jarayon qo'llanishi yoki maxsus belgilangan organlar yohud alohida belgilangan javobgarlik asoslari qo'llanishi bilan izohlanadi.

Bundan toifadagi sub'ektlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1. Voyaga etmagan shaxslar***
- 2. Mansabdor shaxslar***
- 3. Xorijiy fuqarolar yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar***
- 4. Harbiy xizmatchilar va intizom ustavlari tatbiq etiladigan boshqa shaxslar².***

SHuningdek fikrimizcha bunday shaxslar qatoriga ***yuridik shaxslarni*** ham kiritish mumkin.

¹ Alimov X.R., Maxmudov A.A., Ismoilov N.T. Ma'muriy huquq. Darslik. 2-nashr. - T.: O'zR IIV Akademiyasi, 2003.-132-b.

² Kozlov YU.M. Administrativnoe pravo: Uchebnoe posobie. M.: YUrist', 2003. – 203 s.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 14-moddasiga binoan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan Voyaga etmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyalar to'g'risidagi nizomda nazarda tutilgan choralar qo'llaniladi.

Voyaga etmaganlarning ma'muriy javogarligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 sentyabdagi "Voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida"gi 360-sonli qarorida¹ voyaga etmaganlar o'rtasida huquqiy-tarbiyaviy ishlar susaytirib yuborilganligi, ular ustidan bo'lgan nazoratning bo'shligi, ish bilan ta'minlash va boshqa muammolar qoniqarli darajada hal etilmayotganligi oqibatida ko'plab yoshlar tomonidan huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etish, giyohvandlik va ichkilikbozlikka berilish, diniy aqidaparastlik yoki turli zararli oqimlar, guruhlar ta'siriga tushib qolish kabi salbiy holatlar uchrab turganligi haqida to'xtalib o'tilgan.

YOshlarni ijtimoiy mehnatga jalb etish, tarbiyalash, ular o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga mutasaddi bo'lgan o'zini o'zi boshqarish organlari, o'quv muassasalari va boshqa idoralarning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi mahalliy hokimliklar huzuridagi mavjud komissiyalar o'z faoliyatini deyarli to'xtatib qo'yganligi ta'kidlangan.

Voyaga etmaganlar o'rtasida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, bu yo'nalishda mas'ul bo'lgan davlat idoralari, jamoat tashkilotlari hamda voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish va yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi "Voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar haqida"gi nizom hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiya tarkibini tasdiqladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida"gi 2000 yil 21 sentabr Qarori // O'zR QHT, 2000, № 6, 99-modda.

Voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiruvchi, voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsiz qolish va huquqbuzarliklarning oldini olish organlari hisoblanadilar.

Voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar - voyaga etmaganlarning nazoratsiz, qarovsiz qolishlari, huquqbuzarliklari va jamiyat uchun zararli xatti-harakat qilishlarining oldini olish, bularga imkon tug'diruvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish; voyaga etmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash; ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga etmaganlarni ijtimoiy-pedagogika jihatdan rehabilitatsiya qilish maqsadida tuziladi¹.

Voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar tumanlar, shaharlar, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tuziladi.

Komissiyalar rais (tuman, shahar, viloyat hokimi o'rinbosari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisining o'rinbosari), rais o'rinbosari, mas'ul kotib va komissiyaning 6-12 a'zosi tarkibida tuziladi. Komissiya a'zolari soni komissiyaning ish hajmiga qarab belgilanadi.

Komissiyaning mas'ul kotibi kundalik ishlarni va komissiya qarorlarining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Tumanlar, shaharlar va viloyatlar hokimliklari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi komissiyalarda boshqa ishlardan ozod mas'ul kotib lavozimi, zaruriyat bo'lganda esa voyaga etmaganlar bilan ishlash bo'yicha inspektor lavozimi joriy etiladi.

Komissiyaga tarkibiga oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, ichki ishlar, mehnat organlari, xotin-qizlar qo'mitasi, kasaba uyushmalari, nodavlat, notijorat tashkilotlari, mudofaaga ko'maklashish jamiyati, mehnat jamoalari, madaniy-ma'rifiy va boshqa muassasalarning vakillari kiradilar.

¹ Xojiyev E.T. Ma'muriy huquq. Darslik. – Toshkent, 2001. – 166-b.

Komissiyalar tarkibida: voyaga etmaganlar o'rtasida madaniy-tarbiyaviy ishlar bo'yicha, umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari va boshqa o'quv muassasalarining o'quvchilari bilan ishlash bo'yicha, bolalar va o'smirlarni ishga joylashtirish va maishiy turmushini yaxshilash masalalari bo'yicha, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan chiqarilgan va tarbiyalash koloniyalaridan ozod qilingan o'smirlar ustidan nazorat o'rnatish bo'yicha seksiyalar tashkil etilishi mumkin¹.

Komissiyalar o'z vakolatlariga kiritilgan masalalar bo'yicha davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladilar.

Tuman (shahar) komissiyalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda voyaga etmagan shaxslarga nisbatan quyidagi ***ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llashlari***, ya'ni:

1) voyaga etmaganga jabrlanuvchidan *uzr so'rash majburiyatini yuklash* to'g'risida tuman (shahar) sudiga taqdimnoma kiritishi;

2) *ogohlantirib qo'yishi*;

3) 15 yoshga to'lgan voyaga etmagan shaxs zimmasiga, agar u mustaqil ish haqiga ega bo'lsa va zarar miqdori belgilangan eng kam oylik ish haqidan ortiq bo'lmasa *moddiy zararining o'rnini qoplash* yoki *uni bartaraf etish majburiyatini yuklashi* yoki belgilangan eng kam oylik ish haqidan ortiq bo'lmagan moddiy zararni o'z mehnati bilan qoplash majburiyatini yuklashi;

4) 16 yoshga to'lgan va mustaqil ish haqiga ega bo'lgan voyaga etmagan shaxsga O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javogarlik to'g'risidagi kodeksida, Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat hokimiyati va boshqaruvining oliy organlari chiqargan hujjatlarda, viloyatlar va Toshkent shahar davlat boshqaruvi organlari qarorlarida ko'zda tutilgan hollarda va miqdorlarda *jarima solishi*;

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida"gi 2000 yil 21 sentabr Qarori // O'zR QHT, 2000, № 6, 99-modda.

5) voyaga etmagan shaxsni o'z ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar yoxud jamoat tarbiyachilari nazoratiga, shuningdek, ularning roziligi bilan *mehnat jamoasi yoki jamoat tashkiloti kuzatuviga topshirishi*;

6) voyaga etmagan shaxs jamiyat uchun xavfli xatti-harakatlar qilgan yoki ijtimoiy axloq qoidalarini qasddan va muntazam ravishda buzib kelgan taqdirda komissiya ichki ishlar organlari bilan birgalikda voyaga etmaganni maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga yuborish masalasini ko'rib chiqish to'g'risida sudga iltimos qiladi. 11 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan voyaga etmagan shaxs *maxsus maktab-internatga yuborilishi*, 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga etmagan shaxs esa *maxsus kasb-hunar kollejiga yuborilishi* mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 15-moddasining ikkinchi qismiga binoan ***mansabdor shaxs*** - bu mulk shaklidan qat'i nazar korxona, muassasa, tashkilotda muayyan mansabni egallab turgan hamda rahbarlik, tashkiliy, farmoyish berish, tekshiruv-nazorat vazifalari yoki moddiy boyliklar harakati bilan bog'liq bo'lgan vazifalar yuklatilgan shaxsdir¹.

Mansabdor shaxslar:

- a) boshqaruv tartibini, davlat va jamoat tartibini saqlash;
- b) tabiiy muhitni;
- c) aholi sog'lig'ini muhofaza qilish sohasida belgilangan qoidalarga;
- d) bajarilishini ta'minlash o'z xizmat vazifalariga kiradigan boshqa qoidalarga rioya etmaganlik bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganliklari uchun ma'muriy javobgarlikka tortiladi².

Mansabdor shaxslar – ma'muriy javobgarlikning maxsus subyektlaridan biri bo'lib, ular tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar turli ko'rinishlarda ifodalanishi mumkin:

birinchidan, o'z xatti-harakatlari bilan o'rnatilgan umumijburiy qoidalarni buzishlari (ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etishlari);

¹ O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 22.09.1994 y. 2015-XII-son Qonuni bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan

² Xudoyberdieva V., Xojiev E. Ma'muriy huquq. O'quv qo'llanma.–T.:TDYUI,2001.-98 b.

ikkinchidan, mansabdor shaxslarning o'z bo'ysinuvida bo'lgan shaxslarga o'rnatilgan qoidalarga zid keladigan ko'rsatmalarni berishlari;

uchinchidan, umumijburiy qoidalarga rioya qilishni ta'minlash mansabdor shaxsning xizmat vazifalariga taalluqli bo'lsa, o'z bo'ysinuvida bo'lgan shaxslar tomonidan mazkur qoidalarga rioya etilishini ta'minlamaganliklari¹.

Mansabdor shaxs sifatida ma'muriy javobgarlikka tortish vaqtida, amaldagi qonunchilik talabiga ko'ra, quyidagilarni:

a) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsning korxona, muassasa yoki tashkilotda ma'lum bir lavozimni egallab turganligini;

b) unga rahbarlik qilish, tashkiliy, farmoyish berish, tekshiruv-nazorat qilish vazifalari yuklatilgan bo'lishini;

c) unga moddiy boyliklar harakati bilan bog'liq vazifalar yuklatilgan bo'lishini aniqlash lozim.

Mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladigan ma'muriy huquqbuzarliklar, odatda *ehtiyotsizlikda* ifodalanadi. Mansabdor shaxs, o'z harakatlarining zararli oqibatlariga olib kelishini oldindan ko'ra bilsa ham, lekin kaltabinlik bilan ularning oldini olish mumkin deb o'ylaydi yoki bunday oqibatlar kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko'ra bilmaydi, holbuki bularni ko'ra bilishlari lozim. Mansabdor shaxslar tomonidan ma'muriy huquqbuzarliklar turli xildagi vazifalarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi, mansabiga sovuqqonlik bilan qaraganligi natijasida sodir etilgan harakatsizliklarda ifodalangan bo'lishi mumkin.

Mansabdor shaxslar tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik *qasddan* sodir etilishi ham mumkin. Bu ayb shakli masalan, mansabini suiiste'mol qilishda ifodalanishi mumkin.

Mansabdor shaxslarning ma'muriy huquqbuzarligi, ayni vaqtda, uning xizmat qoidalarini buzish, ya'ni intizomiy nojo'ya xatti-harakatni sodir etish ham hisoblanadi. Intizomiy nojo'ya xatti-harakat uchun mehnat qonunchiligida intizomiy javobgarlik (intizomiy jazo choralari) nazarda tutilgan.

¹ Xojiev E. Konstitutsiya va O'zbekiston Respublikasi ma'muriy hududiy tuzilishi. // Ilmiy-ommabop risola. – T.:TDYUI, 2005. – 22 b

Lekin shu narsaga alohida e'tibor berish kerakki, bitta huquqbuzarlik uchun faqatgina bitta javobgarlik chorasini qo'llash mumkin, ya'ni mansabdor shaxsning o'rnatilgan qoidalarni buzishiga (huquqbuzarlikni sodir etishiga) nisbatan ikkita javobgarlikni qo'llash mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga binoan mansabdor shaxslarga nisbatan – *jarima* tariqasidagi ma'muriy jazo qo'llanilishi mumkin¹. SHu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, mansabdor shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan jarima miqdori, fuqarolarga qo'llaniladigan jarima miqdoridan oshiq belgilangan.

Maxsus sub'ektlar qatoriga kiruvchi keyingi kategoriyadagi shaxslar bu – ***harbiy xizmatchilar va intizom ustavlari tatbiq etiladigan boshqa shaxslardir.*** O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 16-moddasiga binoan harbiy xizmatchilar va yig'inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, shuningdek, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslar ma'muriy huquqbuzarlik uchun intizom ustavlariga muvofiq javobgar bo'ladilar².

Harbiy xizmatchilar va yig'inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, shuningdek, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga kirmaydigan, intizom ustavlari yoki intizom to'g'risidagi maxsus qoidalar tatbiq etiladigan boshqa shaxslar, ana shu ustav yoki qoidalarda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan hollarda, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganliklari uchun intizomiy javobgar bo'ladilar, boshqa hollarda esa umumiy asoslarda ma'muriy javobgar bo'ladilar.

Amaldagi qonun hujjatlariga binoan, ***harbiy xizmatchilarga*** - O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari saflarida, Ichki ishlar vazirligi ichki qo'shinlarida va Milliy xavfsizlik xizmati qo'shinlarida (chegara qo'shinlarida) haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotgan shaxslar kiradi. O'zbekiston Respublikasi

¹ Li A.A. K voprosu ob Administrativno-protsessualnom Kodekse Respubliki O'zbekistan // Materiali mejdunarodnoy konferentsii. - T.: TGYUI, 2004. S.113-127.

² O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 22.09.1994 y. 2015-XII-son Qonuni bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan

milliy xavfsizlik xizmati organlarining oddiy askarlari va boshliqlari tarkibidagi shaxslar ham harbiy xizmatchilarga tenglashtirilgan. Ichki ishlar organlari, shu jumladan militsiyaning oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslar ham ma'muriy huquqbuzarlik uchun ularga teng darajada javobgar bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida" gi qonun¹ga binoan harbiy xizmatchilar va **yig'inga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar**² harbiy intizom va jamoat tartibini buzganliklari uchun qo'mondonlar (boshliqlar) oldida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom ustavi bo'yicha javobgar bo'ladilar.

Harbiy intizomni va jamoat tartibini buzishga qaratilgan huquqbuzarliklar jumlasiga, o'rnatilgan har qanday umummajburiy qoidalarni buzishni kiritish mumkin.

Tegishli davlat organlari yoki mansabdor shaxslar harbiy xizmatchilar tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganini aniqlagan vaqtda, huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomalar va boshqa ishga taalluqli materiallarni aybdorning Qurolli Kuchlar Intizom ustavi bo'yicha javobgarligi masalasini hal qilish uchun boshliqlarga beradilar.

Harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan quyidagi ma'muriy huquqbuzarliklar uchun, *umumiy asoslarda ma'muriy javobgarlikni* qo'llash mumkin:

- 1) yo'l harakati qoidalarini buzganda;
- 2) ov qilish, baliq tutish va baliq zahiralarini saqlash qoidalarini buzganda;
- 3) bojxona qoidalarini buzganda³.

Amaldagi qonun hujjatlarida harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llanilmaydigan ma'muriy javobgarlik choralari ham ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, *birinchidan*, harbiy xizmatchilar va yig'inga chaqirilgan harbiy

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002 №12, 217-m.

² Amaldagi qonunchilikka binoan, harbiy xizmatni o'tashga majbur bo'lgan fuqarolar yig'inga chaqirilgan vaqtda, harbiy xizmatchilarga tenglashtirilgan.

³ Xamedov I.A., Xvan L.B., TSay I.M. Administrativnoe pravo Respubliki Uzbekistan. Obshchaya chast: Uchebnik: Un-t mirovoy ekonomiki i diplomatii, Tashk. gos. yurid. in-t. – Tashkent: KONSAUDITINFORM-NASHR, 2012. – C. 347.

xizmatga majburlar, shuningdek, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar va boshliqlar tarkibiga mansub shaxslarga nisbatan ma'muriy qamoq jazosi qo'llanilmaydi; *ikkinchidan*, muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilarga jarima solinishi mumkin emas.

Maxsus sub'ekt maqomiga ega bo'lgan yana bir kategoriyadagi shaxslar bu - **xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardir.**

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 17-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar umumiy asoslarda ma'muriy javobgarlikka tortilishlari lozim¹.

Immunitetga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning O'zbekiston Respublikasi qatnashchi bo'lgan xalqaro shartnomalar va bitimlarga zid bo'lmagan qismi qo'llaniladi.

Xorijiy fuqaro – bu O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanmagan va xorijiy davlat fuqaroligi mavjud bo'lgan jismoniy shaxsdir.

“O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida”gi qonun²ning 11-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi hududida yashab turgani holda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan va chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo'lmagan shaxslar - ***fuqaroligi bo'lmagan shaxslar*** deb hisoblanadi.

Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari singari bir xildagi huquq va majburiyatlarga egadir, qonun hujjatlarida ko'rsatib o'tilgan cheklovlar bundan mustasno.

Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan vaqtlarida sodir etgan ma'muriy huquqbuzarliklari uchun qonun

¹ O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 22.09.1994 y. 2015-XII-son Qonuni bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan

² O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992, №3, 159-m.

hujjatlari bilan o`rnatilgan tartibda O`zbekiston Respublikasi fuqarolari singari umumiy asoslarda ma`muriy javobgarlikka tortiladilar.

Xorijiy fuqarolarning ma`muriy javobgarligining o`ziga xos xususiyatlaridan biri – bu ayrim toifadagi xorijiy fuqarolarning ***immunitet huquqi***ga ega bo`lishidir.

O`zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan hamda O`zbekiston Respublikasi bilan tuzilgan xalqaro shartnomalarga binoan xorijiy fuqarolar ma`muriy yurisdiksiyadan immunitetga (daxlsizlik) ega bo`lishlari mumkin. Ular tomonidan sodir etilgan ma`muriy huquqbuzarlik ishlari diplomatik yo`l bilan hal etiladi. Bu toifadagi xorijiy fuqarolar jumlasiga: *diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari* (elchilar, ishonchli vakillar) va *xorijiy davlatlar vakolatxonalarining diplomatiya xodimlari*: maslahatchilar, savdo vakillari, savdo vakillarining o`rinbosarlari, harbiylar, harbiy-havo va harbiy-dengiz attashelari va ularning yordamchilari, attashelarning birinchi, ikkinchi, va uchinchi kotiblari va diplomatik vakolatxonalarining arxivchi-kotiblari.

Immunitet huquqi diplomatik vakolatxonalar boshliqlarining oila a`zolariga va diplomatiya xodimlariga mansub shaxslarning oila a`zolariga ham (agar ular mazkur shaxslar bilan birga yashasalar va O`zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanmasalar) tatbiq etilishi mumkin¹.

Bundan tashqari, konsullik vakolatxonalarining boshliqlari (bosh konsullar, konsullar, konsullarning o`rinbosarlari) va boshqa konsullik lavozimidagi shaxslar ham immunitetga ega bo`lishlari mumkin. O`zbekiston Respublikasi Ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksining 23-moddasi 3-qismiga binoan qonun hujjatlarida ma`muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun xorijiy fuqarolarni va fuqaroligi bo`lmagan shaxslarni ***O`zbekiston espublikasi hududidan ma`muriy tarzda chiqarib yuborish*** nazarda tutilishi mumkin².

¹ Qarang: O`zbekiston Respublikasining ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksiga sharhlar. Mualliflar jamoasi. T.Adolat. 2000. 447-493-b.

² O`zbekiston Respublikasining Ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksi. O`zbekiston Respublikasi 22.09.1994 y. 2015-XII-son Qonuni bilan tasdiqlangan. O`zbekiston Respublikasi qonunlari bilan kiritilgan o`zgartirish va qo`shimchalar bilan

XULOSA

O'zining suverenitetini qo'lga kiritgan O'zbekiston demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib oldi. Bu yo'lda esa asosiy masalalardan biri insonparvarlik tamoyilini ro'yobga chiqarish, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida barcha kuchlarni safarbar etishdir. YUqoridagilar bilan bir qatorda inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yaratish va ularni yanada takomillashtirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. SHu bilan bir qatorda jamiyatimizda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashning samarali mexanizmlarini ta'minlash bilan bir qatorda davlat tomonidan o'rnatilgan qonunlarga amal qilish, konstitutsiya asosida belgilangan majburiyatlarni so'zsiz bajarish har bir fuqaroning burchidir. Biroq ayrim shaxslar tomonidan davlat tomonidan o'rnatilgan qoidalarining buzilishi, rioya etilmasligi va itoat etilmasligi oqibatida davlat tomonidan o'rnatilgan javobgarlik asoslari kelib chiqadi. Biz bitiruv malakaviy ishi mavzusi yuzasidan olib borgan tadqiqotimiz mobaynida aynan shunday javobgarlik turlaridan biri – ma'muriy javobgarlik, uning tushunchasi, mohiyati, ma'muriy javobgarlik asoslari, uni qo'llashning tashkiliy va huquqiy asoslari masalalarini o'rganishga harakat qildik. Ushbu o'rganishlar natijasida quyidagi nazariy xulosalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, ma'muriy javobgarlikning boshqa javobgarlik turlaridan farqli jihatidan shundan iboratki, ushbu javobgarlik ijtimoiy zararli qilmishlar uchun belgilanadigan, jamiyatda huquqbuzarlikni oldini olish, unga qarshi kurashish hamda qonunchilikda ma'muriy huquqbuzarlik deb belgilangan qilmishlar uchun belgilanadi;

Ikkinchidan, Mustaqillikdan keyingi yillarda O'zbekistonda ma'muriy javobgarlik asoslarini belgilovchi huquqiy baza shakllantirildi va demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida ushbu huquqiy asoslar yanada liberallashtirilib va takomillashtirilib borilmoqda;

Uchinchidan, Ma'muriy javobgarlikka tortuvchi sub'ektlar doirasining kengligi va javobgarlikka tortiluvchi sub'ektlar ko'lamining kengligi, bu boradagi amaliyotdagi ayrim muammolarning mavjudligi javobgarlikka tortish bilan bog'liq munosabatlarni yanada kengroq o'rganish va tadqiq etish lozimligini ko'rsatadi;

YUqoridagi fikrlardan kelib chiqib biz bitiruv malakaviy ishimizni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelgan ayrim amaliy taklif va mulohazalarni ilgari suramiz:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 12 noyabrdagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Kontseptsiyasida" ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning yangi tahrirda qabul qilish ustuvor vazifa sifatida ko'rsatilgan edi. Bu borada Prezidentimizning 2010 yil 12 noyabrdagi "Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi"ning "Sud-huquq tizimini isloh etish" deb nomlangan ikkinchi ustuvor yo'nalishida oltinchi masala sifatida "Faol rivojlanib borayotgan demokratlashtirish jarayonlarini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksini har tomonlama qayta ishlash va yangi tahrirda qabul qilish zarur"¹ ekanligini ta'kidlagan.

Ushbu qabul qilinishi nazarda tutilgan yangi tahrirdagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda "jinoyat qonunchiligini tobora liberallashtirish, ya'ni, ayrim qonunbuzarlik holatlarini jinoiy yurisdiksiyadan ma'muriy yurisdiksiyaga o'tkazishni ko'zda tutish zarurligini shuningdek ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirish, demokratlashtirish, bu sohada qonuniylikni ta'minlash va fuqarolarning huquqlarini ishonchli himoyalash bo'yicha choralarni ham mazkur kodeksda ko'zda tutish lozimligini"² ta'kidlaganlar.

¹ I.A.Karimov "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" T: "O'zbekiston" 2010 y 17-bet

² I.A.Karimov "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" T: "O'zbekiston" 2010 y 18-b

Fikrimizcha Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning yangi tahriri bilan bir qatorda, Ma'muriy ishlarining protsessual tartib-taomilini belgilovchi "Ma'muriy protsessual kodeksi" ham qabul qilish lozim deb hisoblaymiz.

Ikkinchidan, Ma'lumki oxirgi yillarda sud-huquq islohotlari natijasida sud tizimini yanada modernizatsiyalash, uning mustaqilligini ta'minlash borasida bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada YUrtboshimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlab quyidagi fikrlarni bildirib o'tadilar: "... ko'p narsani chet mamlakatlar tajribasidan o'rganib, tashkiliy-huquqiy muammolarni echib bersak, undan keyingina sud idoralaridan, sudyalardan biz kutgan natijalarni talab qilish mumkin. SHundagina, qani, sen mustaqil ish yurita olasanmi yoki yuqoridan bo'ladigan telefonga qarab xukm chiqarasanmi, degan gap-so'zlarga mutlaqo o'rin qolmaydi"¹. Mamlakatimizda yangi ma'muriy ishlarini ko'rishga ixtisoslashgan sudlar tizimini joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Zero bugungi kunda amaliyotda jinoiy ishlardan ko'ra kuprok ma'muriy ishlar sudyalardan tomonidan ko'rib hal qilinayotganligi guvohi bo'lmoqdamiz. Ma'muriy sudlarning tashkil etilishi, ma'muriy ishlarini sudyalardan qo'lida to'planib qolishini oldini olishga, huquqbuzarliklarning o'z vaqtida oldini olish va ularga nisbatan javobgarlikning belgilanishiga erishamiz. Xolbuki shuni ta'kidlash joizki ma'muriy ishlarini tez va o'z vaktida kurishlik uchun ma'muriy sudlarni tashkil etilishini zamonni o'zi talab qilmoqda.

Uchinchidan, Yangi tahrirdagi Mamuriy javobgarlik tug'risidagi kodeksga amalda mavjud bo'lmagan bir qator normalarni joriy etish lozim. Jumladan, YUridik shaxslarning ma'muriy javobgarligi masalasini kiritish zarur deb hisoblaymiz. Buning asosiy sababi sifatida 2000 yil 15 dekabrda kabul kilingan "Qurilish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun yuridik shaxslarning javobgarligi to'g'risida"gi qonunida jismoniy shaxsdan tashqari yuridik shaxs ham ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkinligi to'g'risidagi qonuniy asos. YUqoridagi fikrdan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi

¹ Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. T. Xalq so'zi. 2013 yil 8 dekabr

Kodeksda yuridik shaxslarning javobgarligi masalalariga oid bironta norma belgilanmaganligini inobatga olib biz yuqoridagi taklif amaliy ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

To`rtinchidan, Ma'muriy javobgarlik kodeksining ichki ishlar organlari tomonidan ma'muriy huquqbuzarliklarni yuritishga oid normalarining tahlili qonunchilikdagi ba'zi normalarni aniqlashtirish lozimligini ko'rsatmoqda.

Xususan Ma'muriy javobgarlik kodeksining 289-moddasida shaxsni ko'rikdan o'tkazish va ashyolarni ko'zdan kechirish bilan bog'liq masalalar o'rin olgan bo'lsada, ichki ishlar organlari tomonidan qaysi holatlarda shaxsni ko'rikdan o'tkazish va ashyolarni ko'zdan kechirish masalasi aniq aks etmagan. Fikrimizcha ushbu normaga aniqlik kiritib, ichki ishlar organlari qolaversa boshqa vakolatli organlarning shaxsni ko'rikdan o'tkazish va ashyolarni ko'zdan kechirish holatlarini aniq ko'rsatib o'tish joiz deb hisoblaymiz;

Beshinchidan, amaliyotda ma'muriy jazoga tortilgan shaxslarni hisobga olish tartibi mavjud bo'lib, ushbu tartib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 17 fevraldagi 39-sonli qarori asosida tartibga solinsada, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik kodeksida ushbu masalaga oid bironta norma yo'qligi va ushbu munosabatlar qonun asosida tartibga solinmaganligini ko'rishimiz mumkin. Fikrimizcha O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik kodeksiga ma'muriy jazoga tortilgan shaxslarni markazlashtirilgan hisobga olish tizimini tashkil etish borasidagi normalarni kiritish yoki alohida qonun qabul qilish lozim deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-tom. T., O'zbekiston, 1996 y.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. T., O'zbekiston, 1996 y.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. T., O'zbekiston, 1996 y.
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-tom. T., O'zbekiston, 1996 y.
5. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-tom. T., O'zbekiston, 1997 y.
6. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-tom. T., O'zbekiston, 1998 y.
7. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom. T., O'zbekiston, 1999 y.
8. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. 8-tom. T., O'zbekiston, 2000 y.
9. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun xar birimiz mas'ulmiz. 9-tom. T., O'zbekiston, 2001 y.
10. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13 – T.: “O'zbekiston”, 2005. – 448 b.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chakirik 6 sessiyasida kilgan «Adolat – qonun ustivorligida» ma'ruzasi. “Xalq so'zi” gazetasi, 30.08.2001 y.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi “Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish” ma'ruzasi. “Xalq so'zi” gazetasi, 29.01.2005 y.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 07.02.2005 y.dagi Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi bilan yig'ilishidagi “YAngi hayotni eskicha

qarash va yondashuvlar bilan qurib bo'lmaydi" ma'ruzasi. "O'zbekiston ovozi", gazetasi. 17.01.2005 y.

14. I.A.Karimov "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi" T: "O'zbekiston" 2010 y 30-31 b

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 18.01.2013 yildagi "2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlari"ga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi "Xalq so'zi" gazetasi,

16. Karimov I.A.Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. T. Xalq so'zi. 2013 yil 8 dekabr

Normativ-huquqiy xujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2014. www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks. Toshkent, Adolat, 2010 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. Toshkent, Adolat, 2010 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi. Toshkent, Adolat, 2010 y.
5. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi 1992 yil 2 iyul Qonuni // O'zR OKA, 1992, №9, 338-m
6. Davlat sanitariya nazorati to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 3 iyul Qonuni // O'zR OKA, 1992, №9, 355-m.
7. Jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma'muriy nazorati to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabr Qonuni // O'zR OKA, 1993, №1, 33-m.
8. Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabr Qonuni // O'zR OKA, 1993, №1, 38-m.

9. Davlat sirlarini saqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 7 may Qonuni // O'zR OKA, 1993, №5, 232-m.
10. Maxalliy davlat hokimiyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentabr Qonuni // O'zR OKA, 1993, №9, 320-m.
11. Fuqarolar sog'liqini saqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 29 avgust Qonuni // O'zR OMA, 1996, №9, 128-m.
12. Davlat bojxona xizmati to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgust Qonuni // O'zR OMA, 1997, №9, 230-m.
13. Davlat soliq xizmati to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgust Qonuni // O'zR OMA, 1997, №9, 232-m.
14. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabr Qonuni // O'zR OMA, 1999, №1, 8-m.
15. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 14 aprel Qonuni//O'zR OMA,1999, №5, 110-m.
16. Yul harakati xavfsizligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 19 avgust Qonuni // O'zR OMA, 1999, №9, 215-m.
17. O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida 1999 yil 20 avgust Qonuni // O'zR OMA, 1999, №9, 217-m.
18. Fuqaro muhofazasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 may Qonuni // O'zR OMA, 2000, №5-6, 151-m.
19. Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabr Qonuni // O'zR OMA, 2001, №1-2, 8-m.
20. Sudlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabr Qonuni // O'zR OMA, 2001, №1-2, 10-m.
21. "Qurilish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun yuridik shaxslarning javobgarligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabr Qonuni // O'zR OMA, 2001, №1-2, 21-m.
22. Mudofaa to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 11 may Qonuni // O'zR OMA, 2001, №5, 80-m.

23. Prokuratura to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 29 avgust Qonuni // O'zR OMA, 2001, №9-10, 168-m.
24. Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabr Qonuni // O'zR OMA, 2002, №12, 217-m.
25. Davlat statistikasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabr Qonuni // O'zR OMA, 2002, №12, 219-m.
26. Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 13 dekabr Qonuni // O'zR OMA, 2003, №1, 7-m.
27. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to'g'risida 2003 yil 25 aprel Qonuni // O'zR OMA, 2003, №5, 65-m.
28. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 29 aprel Qonuni // O'zR OMA, 2004, №5, 78-m.
29. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida" 2005 yil 15 iyun Qarori // O'zR QHT, 2005, № 23-24, 168-modda.
30. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2005 yil 5 oktabr Farmoni // O'zR QHT, 2005, № 40, 303-m.
31. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tashlari tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 2006 yil 14 yanvar Qarori // O'zR QHT, 2006, № 4-5, 23-modda.
32. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari huzuridagi nazorat inspeksiylari tuzilmasini tartibga solish to'g'risida"gi 2000 yil 21 noyabr Qarori // O'zR QHT, 2000, № 9-10, 144-modda.

33. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida"gi 2000 yil 21 sentabr Qarori // O'zR QHT, 2000, № 6, 99-modda.
34. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2003 yil 27 avgust Qarori // O'zR QHT, 2003, № 15-16, 138-modda.
35. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Elektr va issiqlik energiyasidan foydalanish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2005 yil 27 yanvar Qarori // O'zR QHT, 2005, № 3-4, 26-modda.
36. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Reglamenti to'g'risida"gi 2005 yil 14 fevral Qarori // O'zR QHT, 2005, № 7, 55-modda.
37. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga yig'ish va jo'natish, ularni harbiy qismlarda qabul qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari rezerviga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni yashash joylariga qaytarish tartibi to'g'risida"gi 2005 yil 15 mart Qarori // O'zR QHT, 2005, № 10-11, 74-modda.

Maxsus adabiyotlar

11. Alimov X.R. Ma'muriy huquq. Darslik. – T.: O'zR IIV Akademiyasi, 1995.— 203 b.
12. Alimov X.R., Soloveva L.I. i dr. Administrativnoe pravo Respubliki O'zbekistan. Uchebnik dlya yuridicheskix vuzov. - T.: Adolat, 1998. – 484 s.
13. Alimov X.R., Maxmudov A.A., Ismoilov N.T. Ma'muriy huquq. Darslik. 2-nashr. – T.: O'zR IIV Akademiyasi, 2003.— 367 b.
14. Xamedov I. Administrativnoe pravo. Uchebnik.- T.: UMED, 2004. – 234 s.
15. Erkin Xojiev, To'lqin Xojiev. Ma'muriy huquq: Bakalavriatning 5380100 - YUrisprudentsiya yo'nalishi talabalari uchun darslik / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.X.Rustambaev. – T.: 2006. – 800 b

16. Kozlov YU.M. Administrativnoe pravo: Uchebnoe posobie. M.: YUrist', 2003. – 318 s.
17. Nazarov K. Ma'muriy huquq. O'quv qo'llanma. —T.: SamDU, 2004. - 214 b.
18. Xakimov G. Ma'muriy huquq (maxsus qism). – T.: TDYUI, 2005. - 331 b.
19. Xvan L.B. Advokat i proizvodstvo po delam ob administrativnix pravonarusheniyax v Respublike O'zbekistan. Uchebnoe posobie. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – 160 s.
20. Xojiev E. Davlat xizmati. O'quv qo'llanma. – T.: TDYUI, 2004. - 127 b.
21. Xojiev E. Samig'jonov F. Ma'muriy qonunchilik tizimi. O'quv qo'llanma. – T.: TDYUI, 2005. - 219 b.
22. Xudoyberdieva V., Xojiev E. Ma'muriy huquq. O'quv qo'llanma.– T.:TDYUI,2001.-98 b.
23. Adushkin YU.S. Administrativnaya otvetstvennost: nekotorie itogi reformirovaniya rossiyskogo zakonodatelstva // Materiali mejdunarodnogo simpoziuma. - T., 10-11 sentabrya 2005 g. – T.: TGYUI, 2005. - S.134-163
24. Baxromov X. Ma'muriy majburlov. // J. Xayot va qonun. – 2005. – 1-son. – B. 32-37.
25. Baxromov X., Selimanova S. Administrativnaya otvetstvennost: obsoyatelstva, vliyayumie na naznachenie nakazaniya. // J. Huquq. Pravo. Law. – 2005. - №3. – S. 78-79.
26. Boboev D. Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish ma'muriy ta'sir chorasii sifatida. // J. Huquq. Pravo. Law. 2005. № 4. – B. 82-87.
27. Li A.A. Administrativnaya yustitsiya v O'zbekistane: osnovnie cherti i perspektivi razvitiya // Materiali pyatogo nauchnogo simpoziuma Assotsiatsii Administrativnogo prava aziatskix stran. – Nagoya (YAponiya), 23-25 noyabrya 2002 g. – S. 2-10
28. Li A.A. Administrativno-pravovoe regulirovanie v sfere razgosudarstvleniya i privatizatsii v Respublike O'zbekistan // Materiali pyatogo nauchnogo simpoziuma Assotsiatsii Administrativnogo prava aziatskix stran. – Nagoya (YAponiya), 23-25 noyabrya 2002 g.- S. 11-19

- 29.Li A.A. K voprosu ob Administrativno-protsessualnom Kodekse Respubliki O`zbekistan // Materiali mejdunarodnoy konferentsii. - T.: TGYUI, 2004. S.113-127.
- 30.Li A.A. Sovremennoe sostoyanie administrativnogo zakonodatelstva Respubliki O`zbekistan i tendentsii ego razvitiya // Materiali mejdunarodnogo simpoziuma. - T.,10-11 sentabrya 2005 g. – S.119-134
- 31.Xojiev E. Ma'muriy huquqda javobgarlik // J. Qonun himoyasida.1999.№9.– B.15-19
- 32.Xojiev E. Ma'muriy javobgarlik // Ilmiy-ommabop risola.- T.:TDYUI,2006.– 150 b.
- 33.Xojiev E. Davlat boshqaruvi. Ilmiy-ommabop risola. – T.: TDYUI, 2006.— 288 b.
- 34.Internetdan olingan ma'lumotlar:www.ails.nuu.uz; www.ask.elibrary.com; www.yourdictionary.com; www.free-ed.net; www.uzsi.net/portal/index/php.